



“ZAKOVAT” INTELLEKTUAL KLUBI

>> [Bosh sahifa](#) >> [Yangiliklar](#) >> [Savollar](#) >> [Blits savollar](#) >> [Svoya igra](#) >>
[Savol yo'llash](#) <<

Jobir Ahmedovning turli yillardagi savollari.

2002 yil.

1-savol: Kongoda aholi uning 500 tasidan, Indoneziyada 250 tasidan, Sudanda esa 117 tasidan foydalanishadi. U nima?

Javob: Til.

2-savol: Siverra narretis non opustis testibus. Qadimgi lotin aforizmiga ko‘ra, agar siz haqiqatni gapirsangiz, uning hojati yo‘q. Ularni kimni nazarda tutishgan?

Javob: Guvoh.

3-savol: Bodrirallar aytgan: «U turmani mahbuslar bilan to‘ldirib turuvchi xizmatkordir». U nima?

Javob: Ichkilik.

4-savol: Tijortda raqobatga qarshi uchta qudratli qurol bor: 1. Sifat. 2. Narx. 3-nima?

Javob: Reklama.

5-savol: U daraxt Markaziy Osiyoda hosiyatli daraxt hisoblangan. Ocharchilik yillarida ham uning pishig‘iga yetganlar tirik qolishgan. U daraxtni kesish baxtsizlik sanalgan. U qanday daraxt?

Javob: Tut daraxti.

6-savol: O‘tkir Hoshimovning «Daftar hoshiyasidagi bitiklar» ida shunday yozilgan: «Ikkita eng holis hakam sinovidan o‘tgan asar haqiqiy asardir. Birinchisi tabiiyki, kitobxon. Ikkinchisi nima?

Javob: Vaqt.

7-savol: Ozod Sharofiddinov aytgan: «Tanqidchi ijod bog‘iga bolta emas, uni ko‘tarib kirishi kerak». Nimani?

Javob: Tokqaychi.

8-savol: Ulug‘ mutafakkir Mir Alisher Navoiy bu so‘zning har bir harfiga bir ma’no berganlar. Bu so‘zda ittifoqlik, saodat, latofat, oqibat va muhabbat mujassamlashgandir. Bu qaysi so‘z?

Javob: Islom.

9-savol: Eramizdan avvalgi V asrda yashagan yunon olimi Gerodot: «U Nilning sovg‘asidir» degan. U nimani nazarda tutgan?

Javob: Misr.

10-savol: U 1855 yili sayyoh Livingston tomonidan kashf etilgan. Uning yonida bu sayyohning haykali o‘rnatilgan. Uning yaqinida «katta daraxt» o‘tib turibdi. U nimani kashf qilgan?

Javob: Viktoriya sharsharasi.

11-savol: Ular Zanjibarda uyning kishi diqqatini jalb etadigan asosiy va go‘zal qismidir. Ular boshqa san‘at turlari kabi Zanjibar xalqining shon-shavkati hisoblanganidan uni oroldan tashqariga chiqarishmaydi. U nima?

Javob: Eshik.

12-savol: Ular bamisoli «tirik konservalar». Ularni kemalarga to‘ldirib olib ketilaverganligining boisi ham shundadir. U nima?

Javob: Bahaybat toshbaqalar.

13-savol: Islandiya poytahti Reykyavikdan 112 km janubi-sharqda Surtsey degan vulkan bor. Bu vulkanning boshqa vulkanlardan farqi bor. Bu farq nimada?

Javob: Bu vulkan dengiz ostidan otilib chiqadi.

14-savol: Tabiblar uni qanday ichish kerakligini yozishgan: «Bu ajoyib ichimlikni osoyishta ich, shundagina sen tanangga ozor beruvchi tashvishlarni yenga oladigan darajada o‘zingni tetik his etasan». Bu qaysi ichimlik?

Javob: Choy.

15-savol: Rossiyaga u dastlab Mongoliyadan 1638 yilda dori sifatida yuborilgan; Rossiyada uni iste‘mol qilish XVIII asr o‘rtalaridan boshlab odat tusiga kirgan. U nima?

Javob: Choy.

16-savol: Bu daraxt Afrika shimolida shu yerlik xalqning ozuqaga, qurilish materiallariga, qisqasi, kun ko‘rish uchun zarur narsalarga bo‘lgan ehtiyojini qondiradi. Sahroi kabirning ayrim

viloyatlarida uning mevasi hamon pul vazifasini o‘tab kelmoqda. Bu qaysi meva?

Javob: Xurmo.

17-savol: Uning vatani Bengaliya hisoblanadi. E.av. 327 yilda Iskandar Zulqarnayn Hindistonga yurish qilgan paytlarida uni «arisiz asal» deb atagan. U nima?

Javob: Shakarqamish.

18-savol: «Fil sichqondan qo‘rqadi, chunki sichqon filning hartumiga kirib ketarmish» deyishadi. Bu noto‘g‘ri. Fil hartumiga sichqon kirishidan qo‘rqmaydi. Mabodo sichqon filning hartumiga kimgudek bo‘lsa, uni chirpirak qilib puflab yuboradi. Lekin «fil sichqondan qo‘rqadi» degan iboraning zamirida haqiqat bor. Bu haqiqat nimadan iborat?

Javob: Sichqon va kalamushlarning narsalarni qitirlatib kemirishi filni asbiylashtirib yuboradi, jazavasini qo‘zg‘otadi va shuning uchun fil o‘sha yerdan qochishga harakat qiladi.

19-savol: Bu ovozni eshitgan qoplon irillashdan, sirtlon uvillashdan to‘xtaydi, maymunlar ayuhannos solib daraxtlarning eng baland shohlariga chiqib ketadi, kiyiklar, ohular yashin tezligida ko‘zdan g‘oyib bo‘ladi, podada ma‘rayotgan qo‘y, echkilarning ovozi o‘chadi, tuyalar arqonini uzib qochadi, otlar oldinig ikki oyog‘ini tik ko‘tarib, og‘ir hansirab, kishnay boshlaydi va zo‘r berib orqasiga tisariladi, itlar dumini qisib egasining pinjiga kiradi. Bu ovozni eshitganda hatto odam ham bezgak tutgandek qaltirab, bekinish uchun joy axtaradi. Bu qanday ovoz?

Javob: Sher na‘rasi.

20-savol: Polineziya orollarida ularga cho‘chqa va toshbaqa go‘shiti, tunets balig‘i, tovuq kabi lazzeatli taomlar iste‘mol qilish man etiladi. Kimlarga nisbatan bunday ta‘qiq qo‘llaniladi?

Javob: Ayollarga.

21-savol: Bu diyorda yetim qolgan cho‘chqa bolasini emizayotgan ayolni, eng yaqin kishisi vafot etganida ta‘ziya bildirish sifatida bir barmog‘ini kesib tashlaydigan odamlarni hozir ham uchratish mumkin. Bu diyorning nomi nima?

Javob: Papua-yangi Gvineya.

22-savol: Kamerun mamlakatining Mamfe viloyatida xalqlar bir tabiat hodisasini istab xudoga yolvorganlarida tunda «mavu» degan raqsni ijro etadilar. Afrikani ko‘z oldingizga keltiringda, ular raqsga tushgan holda xudodan nimani so‘rashlarini ayting.

Javob: Yomg‘irni

23-savol: Afrikadagi Sahroi Kabirda yashovchi Tubu qabilasida qiziq bir maqol bor: «Tubuga har kuni uning bittasi kifoya. Ertalab uning po‘chog‘ini, kunduzi etini, kechqurun esa danagini yeydi» deyishadi. Bu maqol nima haqida?

Javob: Xurmo mevasi haqida.

25-savol: Birmaning tog‘li rayonlaridan birida yashovchi paduanglar qabilasida ayol kishining go‘zalligi uning bo‘ynining uzunligiga qarab belgilanadi va ayollar bo‘yinlarini uzaytirish maqsadida mahsus xalqalar kiyib yurishadi. Paduanglarda og‘ir gunoh qilgan ayollarga beriladigan eng qattiq jazo bor. Eriga xiyonat qilgan ayolga bunday jazo qo‘llaniladi. Bu qanday jazo bo‘lishi mumkin?

Javob: Bo‘ynidagi xalqalarni olib tashlashdan iborat.

26-savol: Bepoyon jazirama cho‘ldagi yashovchi badaviylar uchun bu rang muqaddas rang, baxt va go‘zallik rangi, jannat rangidir. Bu qaysi rang?

Javob: Yashil rang.

27-savol: Indoneziyaning Bali orolida yashovchi har bir inson umrida uch marotaba ibodatxonaga zambilda keltiriladi: birinchi marta-yigit yoki qiz balog‘atga yetganida, ikkinchi marta-nikoh to‘yida. Uchinchi marta qachon?

Javob: Birinchi o‘g‘il ko‘rganda.

28-savol: Janubiy Afrikada yashovchi gerero degan qabilada «Ularga qo‘shni bo‘lishdan og‘irroq musibat yo‘q» degan maqol bor. Ho‘sh bu maqol nima yoki kim haqida?

Javob: Egizaklar haqida.

Izoh: Gerero qabilasida egizaklar muqaddas sanaladi va ular o‘z uyidan tashqari qo‘shnisining uyiga ham bemalol kirib, hohlagan ishlarini qilishlari mumkin, tabiiyki, bu qo‘shnilar uchun bir qancha noqulayliklarni keltirib chiqaradi.

29-savol: Vengriyada yangi yilda bayram dasturxoniga turli-tuman taomlar, tamaddilar, ko‘katlar, ko‘p hil noz-ne‘matlar tortiladi. Mehmonlar oldiga cho‘chqa bolasi butunligicha keltirib qo‘yiladi. Lekin dasturxonga bir turkum taomlarga qo‘yilmaydi. Qanday taomlar?

Javob: Parranda go‘shiti.

Izoh: Chunki ularning tushunchalari bo‘yicha, parranda uchadi va uning go‘shiti bayram dasturxoniga qo‘yilsa, yil davomidagi baraka va baxt uchib ketadi deb hisoblashadi.

30-savol: Shotlandiyada yangi yil kechasi ular xonadoniga men yoki G‘anisher Rahmatullaev, Bobur Yoqubov, Furqat Qurbonov, boringki Obid Asomov birinchi bo‘lib qadam qo‘ysa, bu oila yil bo‘yi baxt-saodatli bo‘larmish. Nega shunday bo‘lishi mumkin?

Javob: Chunki bizlarning barchamizning sochlarimiz qora rangda.

31-savol: O‘tmishda Seyshel orolida bu meva «baxt ramzi» hisoblangan. Baxt va daromadni qo‘lga kiritish maqsadida bu mevaning bir donasini qimmatbaho buyumlarga, hatto bir kema molga almashib olgan kishilar ham bo‘lgan. Bu qanday meva?

Javob: Seyshel yong‘og‘i.

32-savol: Mashhur sayyoh D. Livingston uni to‘ntarib qo‘yilgan ulkan sabziga o‘xshatgan. Afrikaliklardagi bir rivoyatda: «Kunlardan birida qudratli tangri undan g‘azablanib, uni sug‘urib olganu, ildizini yuqoriga, shoxini pastga qaratib to‘ntarib yana yerga tiqib qo‘ygan» deyiladi. Bu nima?

Javob: Baobab daraxti.

33-savol: Bu hayvon nomining tarjimai mahalliy qabilalardan birining tilida «ichmaydi» degan ma‘noni bildiradi. Bu hayvon haqiqatdan ham suv ichmaydi. Evkalipt barglari tarkibidagi suv uning uchun kifoya. Bu qaysi hayvon?

Javob: Koala.

34-savol: Nemis kimyogarlari Gans Tropsh va Frants Fisher 1924 yilda uglerod oksidi va vodorod aralashmasidan past bosim ostida uni sanoat miqiyosida olishning yangi usulini ochdilar. Nimaning?

Javob: Benzin.

35-savol: 1895 yili amerikalik ixtirochi metalli almashtiruvchi ustarani xavfsiz soqol olish moslamasi bilan almashtirdi. U olimning ismi-sharifi kim?

Javob: K.Jilleti.

36-savol: U narsani biz deyarli har kuni ko‘ramiz. U haqidagi birinchi ma‘lumotlar 1254 yilda ma‘lum bo‘la boshladi. Lekin uning ilk ko‘rinishlari metalli bo‘lib, u bronzaga sayqal berish yo‘li bilan tayyorlangan. U nima?

Javob: Ko‘zgu.

37-savol: Bu moslamani ilk bor 1670 yilda nemis ustasi Erxard Veygel Ienada turar joy binosida qurgan edi. Keyinchalik uni rivojlantirishda amerikalik muhandis Elishey Otis o‘z hissasini qo‘shdi. Mana salkam 340 yilki u insoniyatga beminnat xizmat qilib kelmoqda. U nima?

Javob: Lift.

38-savol: U haqidagi dastlabki ma‘lumotlar yunon shifokori Klavdiy Galenning yozma manbalarida uchraydi. Ilgari undan foydalanish uchun uni surtishgan. Faqtgina Jyulen Lui Joffruning ixtirosidan keyingina u qattiq holda ishlatila boshlangan. U nima?

Javob: Sovun.

39-savol: 1945 yilda AQSh da uning sanoat miqiyosida ishlab chiqarilishi boshlangan. U ilk bor angliyalik mikrobiolog Aleksandr Fleming tomonidan 1920 yildayoq ajratib olingan edi. Bu kashfiyot uzoq vaqt amalga kiritilgani yo‘q. Ikkinchi Jahon urushi vaqtida angliyalik bioximik Ernst Boris Cheyn va vrach Xouard Uolter Flori uni keng ishlab chiqarishga joriy etdi. U nima?

Javob: Penitsillin.

40-savol: U narsa bizning yanada ko‘rkamroq ko‘rinishimizni ta‘minlaydi. U dastlab 1470 yilda paydo bo‘lgan. Faqtgina 1890-1894 yillardan boshlab aynan hozirgi vaqtdagi ko‘rinishga kirgan. Bu nima bo‘lishi mumkin?

Javob: Dazmol.

41-savol: Bu davlatning nomi arabcha so‘zdan olingan bo‘lib «suv o‘rtasidagi quruqlik, orol» degan ma‘nolarni bildiradi. Bu davlatning nomi nima?

Javob: Jazoir.

42-savol: Bu siz bilan bizga juda yaxshi tanish bo‘lgan so‘z arab tilidan olingan olingan bo‘lib, nozik fahm, yaxshi fikrlash degan ma‘nolarni bildiradi. Bu qanday so‘z?

Javob: Zakovat.

43-savol: Zardob, zardolu degan so‘zlarni barchamiz eshitganmiz. Zardob va zardoluni ko‘z oldingizgi keltiringda, shu so‘zlarning o‘zagi bo‘lgan «zard» so‘zi qanday ma‘noni bildirishi mumkinligini ayting.

Javob: Fors tilida «sariq» degan ma‘noni bildiradi.

44-savol: Bu so‘z arab tilidan olingan bo‘lib «tirikchilik, umr kechirish, yashash» degan ma‘nolarni bildiradi. Lekin hozirgi kunda bu narsa yashash va umr kechirish uchun unchalik ham yetmasligi mumkinligini ko‘rish mumkin. Bu qanday so‘z?

Javob: Maosh.

45-savol: 1763 yilda shotland monaxi tomonidan yaratilgan elektr asbobi dunyodagi ilk elektr asbobi hisoblanadi. Undan cherkov qo‘ng‘irog‘i sifatida foydalanilgan. U nima?

Javob: Zvonok (eshik qo‘ng‘irog‘i).

46-savol: Alisher Navoiyning «Hayrat-ul abror» dostonida «U shoxona to‘shagini muallaq havoda soldirar, safarda unga yellar hamrohlik qilar, sehrlu uzugi tufayli devu parilar odamlar qatorida amru farmoniga itoatda edi» deb yozilgan. U qaysi payg‘ambar haqida shunday yozgan?

Javob: Sulaymon.

47-savol: Xalqimizda nikohlangan kelinning onasiga berilgan sovg‘a shunday atalgan. U qizni tarbiyalagan ona mehnatini alohida taqdirlash uchun nikoh to‘yi oldidan kuyov tomonidan berilgan. Uni ona o‘z ixtiyori bilan sarf etishga haqli bo‘lgan. U qanday nomlangan?

Javob: Sut haqi.

49-savol: Bu taom nomi turkchada «tovada pishiriladigan ovqat» degan ma‘noni bildiradi. Bu

gruzin xalqining milliy taomidir. Uni hammamiz sevib iste'mol qilamiz. Bu taom qanday ataladi?

Javob: Tabaka.

50-savol: U qadimgi Rimda ixtiro qilingan. Arxeologik materiallarga qaraganda, dastlab paypoq yoki boshmoq shaklida qamishdan to'qib tayyorlangan, keyinchalik ilmoqli temir plastinkachalarni arqon yoki qayish bilan bog'lab qo'yilgan. U nima?

Javob: Taqa.

51-savol: Bu butun jahonni o'z qobiliyati va iste'dodi bilan zabt eta olgan buyuk ijodkor roppa rosa 56 yoshida, ya'ni o'zining tug'ilgan kunida vafot etgan. U kim?

Javob: Vilyam Shekspir.

52-savol: O'tmishda Yevropaning ayrim mamlakatlarida chopar orqali yetkazilgan xat-xabar shunday atalgan, hozirgi kunda esa bu so'z bilan bir sport musobaqasi ataladi. Bu qaysi so'z?

Javob: Estafeta.

53-savol: Bu so'z frantsuzcha «darveshning kulbasi, hilvat joy» degan ma'nolarni anglatadi. Shahardan tashqarida qurilgan villa, atroflari bog'li pavilonlarning nomi hisoblanadi. Bu so'z bilan jahon madaniyati durdonalari bilan bog'liq bir joy ataladi. Bu qanday nom?

Javob: Ermitaj.

54-savol: Bu so'zning ma'nosi «yo'q joy, hayolijoy», boshqa taxminlarga ko'ra «farovon joy» degan ma'nolarni bildiradi. Bu ilmiy asoslab berilmagan, ideal ijtimoiy tuzum tasviridir. Bu qaysi so'z?

Javob: Utopiya.

55-savol: G'arbiy Yevropada o'rta asrlarda ritsarlarning xarbiy musobaqasi bo'lib o'tgan. Uning maqsadi – ritsarlarning jangovarlik qobiliyatlarini namoyish qilishdan iborat bo'lgan. 16-asrga kelib ko'pchilik mamlakatlarda barham topib ketgan. Ushbu musobaqa qanday nomlangan?

Javob: Turnir.

56-savol: 1492 yilning avgustida Ispaniya sohilidan Palos shahriga 3 ta yelkanli kema yo'lga chiqdi. Bular: «Santa Mariya», «Ninya» va «Pinta» edi. Ularning kapitani kim bo'lgan?

Javob: Xristofor Kolumb.

57-savol: Ochiq dengiz Kolumb boshchiligidagi dengizchilarni cho'chitardi, chunki ular avvallari faqat sohil bo'ylab suzishardi. Shuning uchun ufqda yashil tasmani ko'rishganida bexad sevinib ketishdi. Lekin u yer emas, balki u edi. Nima edi?

Javob: Yuzi qalin suvo'tlar bilan qoplangan Sargasso dengizi edi.

58-savol: Ilgaridan olimlar ushbu osmon jismlarini «ko‘rinadigan hech narsa» deb atashardi.

Qaysi osmon jismlarini?

Javob: Kometalar.

Izoh: Chunki, ba’zi kometalarning boshi ham, dumi ham juda siyrak – ularning zichligi biz nafas oladigan havo zichligidan milliardlarcha marotaba kichik bo‘ladi.

59-savol: Bu so‘z Italiyada to‘rt yuz yil muqaddam paydo bo‘lgan. Yetimlar yashaydigan bolalar uylari shunday nomlangan. Bu uylarda yetimlarni etik tikishga, devorlarni bo‘yashga, shuningdek musiqa asboblarni chalish va qo‘shiq aytishni o‘rgatishgan. Ushbu uylar qanday nomlangan?

Javob: Konservatoriyalar.

60-savol: Hozir Moskva konservatoriyasi buyuk rus kompozitori P.I. Chaykovskiy nomi bilan yuritiladi. Toshkent konservatoriyasi esa o‘zbek kompozitori Muxtor Ashrafiy nomida. Sankt Peterburg konservatoriyasi esa boshqa bir rus kompozitori nomi bilan ataladi. U kim?

Javob: Nikolay Andreevich Rimskiy-Korsakov.

61-savol: Petr I ning farmoniga binoan, jahonda birinchi marta Tula zavodida ular faqat metallardan yasala boshlangan. Ular Rossiya iqlimi uchun juda qulay bo‘lgan vositalar hisoblangan. U nima?

Javob: Konki.

62-savol: Moviy ko‘llari va daryolarining betakror go‘zal manzarasi, bu davlat qarag‘ayining nafis yam-yashilligi tufayli bu davlatni qadimdan «Tonggi musaffolik mamlakati» deb atashadi. Bu qaysi mamlakat?

Javob: Koreya.

63-savol: Yunonchada bu sohaning nomi «kema xaydash mahorati» degan ma’noni bildiradi. Hozirda bu soha bilan bog‘liq kishilar ham kema xaydashadi, ammo ularning kemalarining na yelkani bor, na bug‘li dvigateli. Bu qaysi soha?

Javob: Kosmonavtika.

64-savol: Bundan sakkiz asr muqaddam Neglinnaya daryosining Moskva daryosiga quyilish joyida, tik yonbag‘irli tepalikda rus knyazi Yuriy Dolgorukiy buyrug‘i bilan kichik yog‘och qal’a quriladi. O’sha davrlarda Rusda bunday kichik qal’a-shaharchalar ko‘p bo‘lgan. Aynan mana shu shaharcha va ana shu qal’a shonli va buyuk tarixga ega bo‘lishi o’sha paytlarda hech kimning hayoliga kelmagan. U qal’a-shaharcha qanday nomlangan?

Javob: Kreml.

65-savol: Rossiya tarixidagi eng yorqin va qahramonona sahifalar bu yer bilan bog‘langan. Dmitriy Donskoy drujinalari shu yerdan dushmanga qarshi kurashga jo‘nab ketishgan. Rus

xalqini polyak va shved bosqinchilaridan ozod etgan Minin va Pojarskiyning ko‘ngilli qo‘shinlari bu joydagi qo‘ng‘iroq ovozlari bilan kutib olingan. Bu yerda Petr I va Karl XII va shved qo‘shinlari ustidan qozonilgan Poltava g‘alabasini nishonlagan. Bu qaysi joy?

Javob: Kreml.

66-savol: Sankt Peterburgdagi Yozgi bog‘da bir haykal bor. Uning atrofida har doim bolalar gavjum. O‘rindiqda o‘tirgan qariya chuqur o‘yga tolgan, uning poyida hayvonlarning bronza haykalchalari. Bu odam kim?

Javob: Ivan Andreevich Krilov va uning masallari qahramonlari.

67-savol: «Kristallos» so‘zi yunonchadan tarjima qilinganda qanday ma‘noni bildiradi?

Javob: Muz.

68-savol: Kishi bu davlatning qaysi joyida yashayotgan bo‘lmasin, agar u cho‘milishni istab qolsa, avtobusga o‘tirib dengiz bo‘yiga borishi, miriqib cho‘milishi va o‘sha kuniyoq yana uyga qaytib kelishi mumkin. Chunki orolning eng keng joyida u qirg‘oqdan bu qirg‘oqqacha bo‘lgan masofa 230 km dan oshmaydi. Bu qaysi davlat?

Javob: Kuba.

69-savol: Bu sportning eng qadimgi turlaridan biri. Miloddan 2500 yil avval u bilan misrliklar qiziqishgan. Yunonlar ham bu sportni sevishgan. U paytlarda ko‘proq qumli maydonchada musobaqalashishgan. Bu qaysi sport turi?

Javob: Kurash.

70-savol: U qozoqlarda «kures», gruzinlarda «chidaoba», armanlarda «kox», ozarbayjonlarda «gyulesh» deb ataladi. U o‘zbeklarda qanday nomlanadi?

Javob: «Kurash».

71-savol: Bu sport turining nomi «quolsiz o‘zini himoya qilish» degan ma‘noni bildiradi. Bu qaysi sport turi?

Javob: Sambo (rus.«Samozaùita bez orujiya»).

72-savol: 1502 yilning yozida Florentsiya aholisi ko‘chalarda ko‘pincha tashqi qiyofasi g‘alati bir kishini uchratishardi. Uning oq oralagan uzun sochlari bosh kiyimi tagidan yelkasiga yoyilagan, soqoli yuzini qoplab, ko‘ksiga tushgan edi. Quyuq qoshlari ostidan sinchkov ko‘zlari termulib turardi. Baland yirik gavdasiga keng kiyim yarashardi. Bu inson kim edi?

Javob: Leonardo da Vinchi.

73-savol: 1837 yilning yanvarida, Pushkinning fojiali o‘limi kunlarida Rossiya to‘satdan rus adabiyotida Pushkinning vorisi bo‘lish nasib etgan yosh shoirning ovozi eshitildi. U kim edi?

Javob: M.Yu.Lermontov.

74-savol: Bu davlatdan bo‘lgan shoira o‘z davlati haqida shunday yozgan edi:

«Mo‘jaz o‘lkam mening bamisoli
Qahraboning zarrin tomchisi».

Chindan ham bu o‘lkani qahrabo o‘lkasi deyishadi. Bu qaysi mamlakat?

Javob: Litva.

75-savol: Bu puflama mundshtukli musiqa asbobining nomi uning ixtirochisi bo‘lgan belgiyalik puflama asboblarning ustasi nomiga qo‘yilgan. Bu qaysi musiqa asbobi?

Javob: Saksofon (Saksa (1814-1894) sharafiga).

76-savol: Mutahassislarning fikriga ko‘ra, agar ular yer yuzida yo‘q bo‘lib ketganlarida yuz ming tur o‘simlik o‘lib ketgan bo‘lardi. Bu o‘simlik «halaskorlar» ini ayting.

Javob: Asalarilar.

Izoh: Ular o‘simliklarning gulini changlatib ularning ko‘payishiga qulay sharoitni yaratadi.

77-savol: Qadimgi Rimda qirq yoshli odam chol hisoblangan, oltmish yoshlisi esa-dopontanus, ya’ni faqat ungagina yaraydigan bo‘lgan. Nimaga yaraydigan bo‘lgan?

Javob: Faqatgina qurbonlik qilishga yaraydigan bo‘lgan.

78-savol: Bu san’at 16-17 asrlar bo‘lag‘asida, Uyg‘onish davrida paydo bo‘ldi. Italiyaning Florentsiya shahridagi shoirlar, musiqachilar, rassomlar bu san’atning asoschisi bo‘lishgan. Bu san’atda ular san’atning har xil turlarini (she’riyat, musiqa, drama, tasviriy san’at) birlashtirishdi. O‘shandan buyon bu san’at butun dunyo bo‘ylab keng tarqaldi. Bu qaysi san’at?

Javob: Opera.

79-savol: U inson haqida H. No‘‘mon va A. Shorahmedov «Ota» romanini yozishgan, «O‘zbekfilm» kinostudiyasida «Mazmunli qisqa hayot» nomli badiiy film yaratilgan. U inson kim edi?

Javob: Yo‘ldosh Ohunboboev.

80-savol: Eng yirik va baquvvat qushlardan biri bo‘lgan bu qush qadim zamonlardan buyon go‘zallik va sevgi, poklik va nafislik ramzi hisoblanadi. Bu qush xalq rivoyatlari va ertaklarida ko‘p kuylangan. Qadimgi rivoyatlardan birida bu ajoyib go‘zal qush o‘z o‘limi oldidan qo‘shiq kuylashi haqida hikoya qilinadi. Bu qaysi qush?

Javob: Oqqush.

81-savol: U juda iste’dodli edi, ximiyaga qiziqib, 27 yoshida professor bo‘ldi. Uning tadqiqot va kashfiyotlari olimlarni hayratda qoldirardi. Hech kim uning yaqin orada ximiya qolib, butunlay

boshqa soha bilan shug'ullanib ketishini hayoliga ham keltirmagan edi. Bu olim kim edi?

Javob: Lui Paster.

82-savol: XVIII asrda Gollandiyaning Zaandam shaharchasidagi dengiz kemalari qurilayotgan korxonada kunlarning birida yangi duradgor paydo bo'lib qoldi. Boshqalar qatori u ham taxtalarni randalar, mix qoqar, og'ir g'ovalarni tashir edi. Ishdan keyin u iloji boricha ko'proq qiziqarli narsalarni ko'rish ishtiyoqida uzoq vaqt shahar aylanib yurardi. Keyinchalik Zaandam aholisi ana shu yosh duradgor aslida chet el sayohatiga chiqqan rus kishisi ekanligi haqida taajjub bilan xabar topdi. U rus kishisi kim edi?

Javob: Petr I.

83-savol: U podsho o'zining shahsiy muhriga «Men shogirdman va ustozlarga muhtojman» deb o'yib yozdirgan. U podsho kim edi?

Javob: Petr I.

84-savol: U mustahkamligi jihatidan po'lat simga o'xshaydi. Uni uzish qiyin bo'lib, 1 kvadrat millimetrini uzish uchun 50 kg kuch kerak. U nima?

Javob: Ipak.

85-savol: Birinchi marta ularni ko'rgan dengizchilar ularni uzoqdan frak va sutdek oppoq mashnika kiyib olgan odamlar to'dasi deb o'ylashgan. O'sha zamonlarda erkaklar tantanli marosimlarda shunday kiyinishar edi. Dengizchilar o'shanda aslida nimani ko'rishgandi?

Javob: Pingvinlarni.

86-savol: Bundan 135 yilcha avval Amerika firmalaridan biri qimmatbaho fil suyagi o'rnini bosa oladigan material tayyorlashga konkurs e'lon qildi. Konkursda ko'p ixtirochilar, injinerlar va olimlar ishtirok etishdi. Shular orasida Xayyat degan aka-uka ixtirochilar ham bor edi. Ular hozirgi kunda juda keng tarqalgan bir materialning dastlabkilarini yaratishgan edi. U qanday material edi?

Javob: Plastmassa.

87-savol: Bu voqea dastlab Londonda yuz yildan ko'proq vaqt muqaddam sodir bo'ldi. Moskvada esa, 1935 yilning 15 mayida sodir bo'ldi. Ho'sh, bu voqea Toshkentda qachon sodir bo'ldi?

Javob: 1977 yilning 6 noyabrida.

Izoh: Bu yerda gap ushbu shaharlarda ilk bor metropolitenning ishga tushirilishi haqida bormoqda.

88-savol: Qaysi mamlakat gerbida ot choptirib ketayotgan chavandoz tasvirlangan?

Javob: Mongoliya.

89-savol: Bu shahar nomining tarjimasi «qizil botir» degan ma'noni bildiradi. Bu qaysi shahar?

Javob: Ulan Bator.

90-savol: Ulug' Vatan urushi yillarida okop va yerto'lalarda bu hayvonlar boqilgan. Chunki bu hayvonlar askarlarni jiddiy xavfdan saqlagan. O'sha okoplarda qaysi hayvonlar boqilgan?

Javob: Mushuklar.

Izoh: Harobaga aylangan dalalarda yemish topa olmagan kemiruvchilar jangchilar yaqiniga joylashib olardi. Ular tulyaremiya degan juda ham xavfli, og'ir yuqumli kasalliklarni tarqatardilar.

91-savol: Tarixchi Xondamir o'zining «Makorimul-ahloq» deb nomlangan kitobida «Navoiy vafotiga hatto tabiat ham motam tutdi» deb yozgan. Xondamir nima sababdan shunday deb yozgan?

Javob: 1501 yil uni dafn etish chog'ida maydalab yomg'ir yog'ib turgan.

92-savol: Dunyodagi eng yebto'ymas mavjudot u ekan. Chunki, u 2 soat ichida 40 ta pashsha va chivinlarni yeb bitirar ekan. U qaysi mavjudot?

Javob: Ninachi.

93-savol: Rus olimi K.A.Timiryazev: «U narsa inson tafakkurining buyuk ixtirolaridan birini tashkil etadi» degan edi. U nimaga shunday ta'rif bergan?

Javob: Yaxshi yopilgan bug'doy noni.

94-savol: O'tmishda yashab o'tgan buyuk yozuvchilar, kompozitorlar, rassomlar ko'pincha klassiklar deyiladi. «Klassik» so'zi eng yaxshi, barkamol, namunali, hamma e'tirof qilgan kabi ma'nolarni anglatadi. Shunday bir alohida fan ham borki, u o'zining barkamolligi tufayli klassik fan deyiladi. Bu qaysi fan?

Javob: Bu Nyutonning klassik mexanikasidir.

95-savol: Dunyoda turli fanlar ko'p va ularning barchasi nimanidir o'rganish bilan shug'ullanadi. Shu fanlarning ichida onomastika deb nomlangan fan bor. Ho'sh, onomastika nimani o'rganadi?

Javob: Odamlar ismining kelib chiqishi, ma'nolarini o'rganish bilan shug'ullanadi.

96-savol: «Mo'l-ko'lchilik dengizi», «Sokinlik dengizi», «Bulutlar dengizi», «Ravshanlik dengizi», «Yomg'irlar dengizi», «Moskva dengizi», «Orzular dengizi» kabi dengizlar qaerda joylashgan?

Javob: Oyda.

97-savol: Turkman yozuvchisi Berdi Kerboboev «Men uni qardosh O'zbekiston adabiyoti osmonidagi oy deb hisoblayman. U yaratgan mashhur asarlarning O'zbekiston tuprog'iga

alangali nur sochayotganini kim tan olmaydi?» deb yozgan edi. U kim haqida shunday yozgan?

Javob: Muso Toshmuhammad Oybek.

98-savol: Nima uchun kaltakesak dumini tashlab ketganda uning dumi yerda goh yig'ilib, goh to'g'irlanib harakat qiladi?

Javob: Raqibi diqqatini ana shu dumga qaratgani zamon dum egasi o'zining yashirin uyasiga qochib qoladi.

99-savol: Bu mamlakatning mahalliy axolisi o'zlarini kxmerlar deb atashadi. Bu qaysi mamlakat?

Javob: Kampuchiya (Komboja).

100-savol: Bu yerda qizil zarang o'sadi. Uning barglari kuzda shunday yorqin tusga kiradiki, daraxt go'yo lovullab yonayotgan mash'alani eslatadi. Bu qaysi mamlakat?

Javob: Kanada.

101-savol: Yaponiyada urush vaqtida o'z qo'shinlariga kaptarlar yordamida xabar yetkazilayotganda bir muammo paydo bo'ladi. Ya'ni xabarni olib ketayotgan kaptarni dushman merganlari urib tushirar yoki ularga yirtqich qushlar xujum qilar edi va xabar kerakli joyga yetib bormas edi. Shunda uddaburon yaponlar bu muammoning xam yechimini topishdi va xabarlar ilgarigidek, kerakli joyiga xech bir shikastsiz yetib bora boshladi. Ular kaptarlar bilan bog'liq qanday yangilikni o'ylab topishgan?

Javob: Ular xatto tunda xam xuddi kunduzgidek bemalol ucha oladigan yangi kaptar zotini yetishtirishdi, natijada dushman uni ko'ra olmaydi, yirtqich qushlar esa ularga xujum qila olmaydi.

102-savol: Yer sharining xamma joyida tarqalgan bu baliq xovuz va ko'llarda yashaydi. Uning nomi yunoncha so'zdan olingan bo'lib, «ko'p bolalovchi», «serurug'» degan ma'nolarni bildiradi. Yunonlar bu baliqni bejiz bunday nomlashmagan, xaqiqatdan xam bu baliq nixoyatda ko'p bolalaydi. Bu baliqning nomi nima?

Javob: Karp.

103-savol: Rossiyaga bu sabzavot Petr I davrida olib kelingan. U paytlarda uning donalari maydaroq va taxir bo'lgan. Ular zich ekilgan, shuning uchun yanada maydalashib ketgan. Dexqonlar uzoq vaqt bu sabzavotni ekishdan bosh tortishgan. Uni ekishga majbur qilinganda xatto qo'zg'olonlar xam bo'lib o'tgan. Bunday isyonlar xarbiy qo'shinlar bilan bostirilgan. Dexqonlar shunchalik ekishni xoxlamagan sabzavot qaysi?

Javob: Kartoshka.

104-savol: Uning birinchisini 1807 yilda amerikalik R.Fulton yasagan. U o'zining yangi kashfiyotini «Klermont» deb atagan. U nimani ixtiro qilgan?

Javob: Birinchi paroxodni.

105-savol: Bu xayvonning bolasi juda kichkina, yalang'och va ko'zi yumuq xolda tug'iladi. Uzunligi 2,5 metrdan ortiq bo'lgan bu katta sariqning bolasi atigi 3 sm bo'lib tug'iladi. Bu qaysi xayvon?

Javob: Kenguru.

106-savol: Maksim Gorkiyning shunday gapi bor: «Bu insoniyat tomonidan yaratilgan barcha mo'jizalar ichida eng buyuk mo'jizadir». U nimaga shunday yuqori baxo bergan?

Javob: Kitob.

107-savol: U dalada xam, konda xam, oshxonada xam kerak bo'lishi mumkin. U nima?

Javob: Kombayn.

108-savol: Bu davlatning qadimgi nomi-Nairi. Bu «daryolar mamlakati» degan ma'noni bildiradi. Haqiqatdan ham bu yerda daryolar 200 dan ortiq. Bu qaysi davlat?

Javob: Armaniston.

109-savol: Bundan 300 yil avval Janubiy Amerika konlarida ispanlar oltin yuvishga xalal bergan og'ir metallarni jaxllari chiqib bazo'r uloqtirib tashlashar edi. Ular kelajakda bu metall oltindan xam qadrliroq bo'lishini xayollariga keltirmagan xolda uni o'z tillarida «kumush» deb atashgan. Bu qaysi metall?

Javob: Platina.

110-savol: Bu chiroyli o'yin ancha yil ilgari vujudga kelgan va uni frantsuzcha bir so'z bilan atashgan. Ammo bu o'yin Yevropaga Sharqdan o'tgan. Uni XIX asrda Xindistondan ingliz gertsogi olib kelgan. Bu o'yinni mana shu gertsogning yeri joylashgan shaxar nomi bilan ataydigan bo'lganlar. Bu qanday o'yin?

Javob: Badminton.

111-savol: A.S.Pushkin bu san'at xaqida shunday fikrlarni aytgan: «U qalbdan ijro etilgan parvozdir». Bu qaysi san'at turi bo'lishi mumkin?

Javob: Balet.

112-savol: AQSh ning Solt Leyk Siti shaxrida ajoyib bir xaykal bor: baland granit ustun ustida globus va uning tepasida ikki qush qanotini yozib parvozga shay bo'lib turibdi. Bu xaykal qaysi qushlarga qo'yilgan?

Javob: Shaxar atrofida million-million chigirtkalar galasi yopirilganda ularni qirib tashlagan va axolini ochlikdan saqlab qolgan baliqchi qushlar ya'ni chaykalar sharafiga o'rnatilgan xaykal.

113-savol: Afrikada yashovchilar «U ulkan daraxt, lekin undan xatto kichkina gulxan xam yoqib bo‘lmaydi» deyishadi. Qaysi daraxt haqida shunday deyishadi?

Javob: Baobab daraxti, chunki baobab yog‘ochi yonmaydi.

114-savol: Bu buyuk g‘alaba edi. Bu g‘alaba frantsuzlar qalbida xamisha yashaydi, shuning uchun xar yili bu g‘alaba amalga oshirilgan kun Frantsiyada milliy bayram sifatida nishonlanadi. Bu qanday g‘alaba edi?

Javob: Bastiliyaning olinishi.

115-savol: Batiskafning uzunchoq korpusi xavo bilan emas, aynan mana shu suyuqlik bilan to‘ldiriladi. Chunki u yerda xavo ketmaydi, katta chuqurlikda suvning kuchli bosimi batiskafni xuddi konserva bankasidek pachoqlab tashlashi mumkin. Bu suyuqlik esa, bosimga yaxshi qarshilik ko‘rsatadi. Bu qaysi suyuqlik?

Javob: Benzin.

116-savol: Tuyaqush tuxumlarini erkagi va urg‘ochisi navbat bilan bosib yotadi. Odatda urg‘ochilari kunduzlari, erkaklari kechqurun tuxum bosadi. Nima uchun shunday?

Javob: Chunki urg‘ochi tuyaqushning pati cho‘l manzarasiga mos kulrang qo‘ng‘ir bo‘lganidan ochiq joyda uzoqdan ko‘zga tashlanmaydi. Erkak tuyaqushlarning pati qora, faqat qanotlari va dumlari uchida patlari oq bo‘lib, qorong‘i tunda ko‘zga ko‘rinmaydi.

117-savol: Qadimgi yunon shaharlarining xar birida eng baland tepalik ustiga qurilgan va atrofi qalin devor bilan o‘ralgan qal’a bo‘lgan. Afinadagi shunday qal’alardan biri eng mashxuri xioblanadi. Bu qal’aning nomi nima?

Javob: Akropol.

118-savol: Bu baliqning bolg‘a, tulki, arratumshuq, zebrasimon, yo‘lbarssimon kabi turlari bor. Bu qaysi baliq?

Javob: Akula.

119-savol: Miloddan avvalgi 4-asr boshlarida yunon faylasufi Platon tashkil qilgan maktab shunday atala boshlangan. Chunki Platon o‘z shogirdlari bilan suxbatni soya salqin bog‘da, afsonaviy qaxramonning xaykali oldida o‘tkazar edi. Platonning maktabining nomi bilan hozirgi kunda shunga o‘xshash muassasalar ataladi. Qanday ataladi?

Javob: Akademiya.

120-savol: Aristotel o‘rta asr sharqida «Birinchi muallim» deb atalar edi. Farobiy Aristotelning asarlarini yaxshi bilishi, u kabi entsiklopedik bilimga ega bo‘lganligi sababli «Ikkinchi muallim», «Sharq Arastusi» degan buyuk unvonga sazovor bo‘lgan. Bu mashxur olim esa, Aristotel va Farobiyning ilg‘or g‘oyalari tabiatshunoslik ilmining yangi yutuqlari asosida yanada

rivojlantirdi va «Uchinchi muallim» degan buyuk unvonga ega bo‘ldi. U kim?

Javob: Abu Ali ibn Sino.

121-savol: U tabiat va yer farzandi edi. U yerni ham dexqoncha mexr, ham olimona tuyg‘u bilan sevardi. Shu sababli u butun umrini yer ilmiga baxshida etdi. Bu yo‘ldagi mashaqqatlarni sabot bilan yengdi. O‘rta Osiyoning tog‘u toshlari, cho‘lu biyobonlarini kezdi, yer ostida necha million yillardan buyon yashirinib yotgan qazilma boyliklarni «tilga kiritish»ga undadi. Bu kim edi?

Javob: Habib Abdullaev.

122-savol: 1913 yili Rossiyada injener I.I.Sikorskiy «Rus paxlavoni» deb atalgan texnikani yaratdi. Jahon miqiyosida shuhrat qozongan «Ilya Muromets» «Rus paxlavoni»ning davomi bo‘lib qoldi. Bu qanday texnika edi?

Javob: Samolyot.

123-savol: Bu davlatni ko‘pincha «Qoldiq xayvonlar muzeyi» deb atashadi. Qaysi davlatni?

Javob: Avstraliya.

124-savol: Bu so‘z yunon tilidan olingan bo‘lib, u «oyoq uchida yuraman», «yuqoriga chiqaman» degan ma‘nolarni anglatadi. Bu tsirk san‘atining alifbosidir. U nima?

Javob: Akrobatika.

125-savol: Kometa, teleskop, apistogramma, metinnis, puntiuskonxonius, mezonkauta. Bu nomlarning umumiyligi nimada?

Javob: Bularning barchasi akvarium baliqlarining nomi.

2003 yil.

126-savol: Leonardo da Vinchi bu inson a‘zosi xaqida shunday yozgan: «Xech bir a‘zo bu kabi katta miqdordagi muskullarga muxtoj emas; ulardan qolgan, men ochganlarimni xisobga olmaganda 24 tasi ma‘lum; va ixtiyoriy xarakatlar bilan xarakatlanadigan barcha a‘zolardan u o‘z xarakatlarining soni bo‘yicha ustun turadi». Bu qaysi a‘zo?

Javob: Til.

127-savol: Sharq elining donishmandi, axloq ilmining otasi Luqmoni xakim aytadi: «Barcha yukni ko‘tardim, ammo burchdan og‘irroq yukni ko‘tarmadim. Barcha lazzatni totib ko‘rdim, ammo undan chuqurroq lazzatni topolmadim». U lazzat deganda nimani nazarda tutgan?

Javob: Salomatlik.

128-savol: Qadimgi Misrda qo‘l yoki oyoqni kesish, qovuqdagi toshlarni olib tashlash va o‘sha

davrda juda keng tarqalgan bir operatsiya qilingan. U qanday operatsiya?

Javob: Bichish (xaramdagi xizmatchi yigitlar axta qilingan).

129-savol: Mashhur xind shifokori Sushrut bunday deb yozgan edi: «U tibbiyotning barcha soxalari ichida birinchi va asosiy o‘rinni egallaydi, u xudoning in’omi bo‘lib, shon-sharaflarga ko‘milgandir». Bu qaysi tibbiyot sohasi?

Javob: Xirurgiya.

130-savol: Ingliz olimi Uilyam Garvey shunday deb yozgan edi: «Har qanday jonli mavjudot undan kelib chiqadi». U nima bo‘lishi mumkin?

Javob: Tuxum.

131-savol: U qadimdan inson xayotining qaqshatqich, ayovsiz va qutulib bo‘lmas yo‘ldoshi bo‘lib kelgan. Shu bilan bir qatorda u falokatning elchisi, inson organizmining sadoqatli va sezgir ximoyachisidir. Ammo u me’yoridan o‘tgach, uning ximoyaviy kuchi butun organizm uchun falokat qudratiga aylanadi. U nima?

Javob: Og‘riq.

132-savol: Tibbiyotda juda keng ishlatiladigan bu so‘zning asl ma’nosi «quritilgan» degan ma’noni bildiradi. U inson organizmining asosi bo‘lib xisoblanadi. Bu qanday so‘z?

Javob: Skelet.

Izoh: Qadimda ular oftobda yoki qum qizig‘ida tayyorlanar edi.

133-savol: Ushbu Temuriy malikaning qabr toshiga uning vaiyatiga binoan: «Xech kim mening qabrimni sabzadan o‘zga narsa bilan yopmasin, g‘ariblar qabrini yopmoq uchun shu giyoxning o‘zi basdir» degan so‘zlargina bitilgan. Ushbu malika kim?

Javob: Zebinusobegim.

134-savol: Ko‘pincha qoraqurtlarga qarshi kurashish maqsadida bu gazandalar tarqalgan yerlarda ma’lum bir tur xayvonlar boqiladi. Ular qoraqurtlarni bosib-yanchib tashlayveradi. Chunki uning zaxri ushbu xayvonlarga ta’sir qilmaydi. Ular qanday xayvonlar?

Javob: Qo‘y-echkilar.

135-savol: Rimning butun uzoq tarixi davomida ko‘zoynaklar bor yo‘g‘i bir martagina tayyorlangan, aniqrog‘i ko‘zoynaklar emas, bittagina oynak – monokl. Va uni shishadan emas, zumraddan yasashgan. Mana shu zumrad orqali ikkinchi ko‘zini yopib turgan xolda bu uzoqni yaxshi ko‘ra olmaydigan inson gladiatorlar jangini kuzatar edi. U kim edi?

Javob: Neron.

136-savol: Bir yuz ellik yillar avval arxeologlar Misr maqbaralaridan biridan unchalik katta

bo‘lmagan, usti qalin zang qoplami bilan qoplangan metall disk topib olishdi. Disk yosh ayol ko‘rinishida yasalgan xaykalchanning bosh qismiga o‘rnatilgan edi. Keyinchalik aniqlanishicha, ushbu disk mis va qalay qotishmasidan ya‘ni bronzadan tayyorlangan ekan. Bu disk qanday maqsadda ishlatilgan?

Javob: Ko‘zgu sifatida ishlatilgan.

137-savol: Payg‘ambar S.A.V. aytadilar: «Albatta u o‘tdan uchqundir. Kimda u kelsa, tik turgan bo‘lsa, o‘tirib olsin, agar o‘tirgan xolda u to‘xtamasa, yotib olsin, agar yotib olgan xolda xam u kelsa, tuproqqa yumalasin». U nima?

Javob: G‘azab.

138-savol: Hakimlar aytishlaricha, u charchog‘i yo‘q ibodat, bezaksiz ziynat, davlatsiz haybat, devorsiz qo‘rg‘ondir, u olim uchun ziynat, johil uchun pardadir. Hakimlar nimani nazarda tutganlar?

Javob: Jim turish.

139-savol: 79 yilning yigirma to‘rtinchi avgustida kutilmaganda u uyg‘onadi. Agarda u umuman xech qachon uyg‘onmaganida yaxshiroq bo‘lgan bo‘lur edi. So‘z nima xaqida bormoqda?

Javob: Vezuviy vulqoni.

140-savol: U inson xaqida o‘ylar ekanmiz, ko‘z o‘ngimizda ikki buyuk siymo gavdalanadi. Biri-o‘rta asrning buyuk riyoziyotchi faylasufi va munajjim olimi, ikkinchisi esa XIX-XX asrdan boshlab jaxon she‘riyati klassiklari qatorida sharaflari o‘rin egallagan, hozir ham she‘riyat osmonining yorqin yulduzlaridan biri bo‘lmish zabardast shoir. U kim?

Javob: Umar Xayyom.

141-savol: Umar Xayyom ruboiylaridan birini eshiting:

Bu ko‘p eski ravot,..... unga nom,-

Tun-kun tulporiga bor bunda orom.

Bu eski bazm yuzlab Jamshiddan qoldi,

Bu go‘rda yotadi yuz-yuzlab Bahrom.

Umar Hayyom yuqoridagi ruboiysida nimaga shunday ta‘rif bergan?

Javob: Olam.

142-savol: Jan Dyushe shunday yozadi: “Osiyoning barcha farzandlari ichidan G‘arb birinchi o‘rinda uni o‘ziga ma‘naviy ustoz qilib tanladi. Uning g‘oyalari Iso Masix ta‘limotidan ilgari Yunonistonni boyitgan edi. Uni Platon xam bilar edi. Budda va Konfutsiylarning ovozlari Yevropaga yetib kelishi uchun ko‘p vaqtlar kerak bo‘ldi. Shu sababli u G‘arbda qadim Osiyoning yagona donishmandi bo‘lib qoldi”. Dyushe kim xaqida shunday yozgan?

Javob: Zardo‘st.

143-savol: Bu soʻz nemischa soʻzdan kelib chiqqan boʻlib, hamyon degan maʼnoni bildiradi. Bu iqtisodiy atama boʻlib, hozirgi kunda bir nechta turlari mavjud. Bu qanday soʻz?

Javob: Birja.

144-savol: Xitoydagi Shanxay shahri, Belgiyadagi Kortrayk shahri, AQSh dagi Sietl shahri, Tunisdagi Tunis shaharlarining bizlarga nisbatan umumiyligi nimada?

Javob: Bular barchasi Toshkent bilan birodarlashgan shaxarlar.

145-savol: Bu soʻz arab tilida “yuk koʻtaruvchi” degan maʼnoni anglatadi. Hozirgi kunda bu soʻz qaysidir maʼnoda toʻgʻri boʻlishi mumkin. Lekin bu soʻz deyarli umumman boshqa maʼnoni anglatadi. Bu qanday soʻz?

Javob: Vazir.

146-savol: Bu soʻz italyan tilidan olingan boʻlib, “chuvalchanglar” degan maʼnoni bildiradi. Italiyani eslaganda bu chuvalchanglar shubhasiz hayolimizga keladi. Bu qanday soʻz?

Javob: Vermishel.

147-savol: XVII-asrda ingliz Jeyn Voks (Jane Vaux) xonim London yaqinida bogʻ va koshona zal qurdirdi. Hozirgi kunda bu bogʻning nomini eshitmagan odam deyarli yoʻq. Bu bogʻning nomidan bir soʻz kelib chiqqan. Bu qanday soʻz?

Javob: Vokzal (Vaux hall).

148-savol: 1968 yilda birinchi feminist yozuvchilardan biri Elizabet Kedi Stenton ularga shunday taʼrif bergan: «Bu shafqatsiz, oʻziga bino qoʻygan, ochofat, urushga va bosqinchilikka moyil yemiruvchi kuchdir. Ham moddiy, ham maʼnaviy dunyoda u faqatgina tartibsizlik, dushmanlik, kasallik va oʻlim sochadi» degan. U kimlar haqida shunday yozgan?

Javob: Erkaklar xaqida.

149-savol: Norvegiyada bunday jinoyat 8 yilgacha ozodlikdan maxrum qilish bilan jazolanadi. AQSh da bunday jinoyatchining ikki politsiya xodimi yuziga tupurgani uchun qotillikka suiqasdda ayblovchi sud ishi koʻrilgan. Bu qanday jinoyat yoki bu jinoyatni sodir etganlar qanday insonlar?

Javob: OITS bilan qasallanganlar.

150-savol: «Deyli telegraf» gazetasining 1976 yil 29 iyul sonida «Qanday qilib omadsiz boʻlib, hech narsa qilmaganlik uchun pul olinadi?» sarlavxasi ostida material chop etilgan. Bu maqola kimlar haqida edi?

Javob: Tilanchilar haqida.

2004-yil.

151-savol: Luqmoni Xakim o‘g‘liga uch vasiyat qildi: birinchisi shuki, xotiningga zinxor siringni aytma, ikkinchisi – nokasdan qarz olma, uchinchisi – u bilan do‘st bo‘lma. U kim bilan do‘st bo‘lmaslikni nasihat qilgan?

Javob: Mirshab.

152-savol: O‘qish, kitoblar, qonun, o‘rganish, sanolar, hushxabar. Ushbu so‘zlarning umumiyliги nimada?

Javob: Bular muqaddas kitoblar nomlarining ma‘nosi: Qur‘on, Bibliya, Tavrot, Talmud, Zabur va Injil.

153-savol: Sanksrit tilida «birlashish», «qo‘shilish» deb ayting.

Javob: Yoga.

154-savol: Ernest Renan uni mustaqil fan sifatidagi ahamiyatini inkor etgan: «U shunday ziravorki, u bo‘lmasa hamma ovqat ta‘msiz bo‘lib tuyuladi, ammo uning o‘zi ovqat bo‘lishga yaramaydi». U qaysi fan bo‘lishi mumkin?

Javob: Falsafa.

155-savol: «Hamma narsani kim biladi?» - degan shogirdlarining savoliga Aflotunning ustози bo‘lmish buyuk donishmand, qadimgi yunon faylasufi Suqrot: «Hamma narsani u biladi, lekin uning bir qismi o‘lib ketgan, ikkinchi qismi hali tug‘ilgan emas» - deb javob bergan. U kim?

Javob: Hamma.

156-savol: Umar Xayyomning ruboiysini tinglang:

Dunyoning tilagi, samari xam u,

Aql ko‘zin qorasi-javhari xam u.

To‘garak jaxonni uzuk deb bilsak,

Shaksiz uning ko‘z-gavhari xam u.

Umar Xayyom u deganda nimani nazarda tutgan?

Javob: Biz.

157-savol: Falesning shunday iborasi bor: «Yulduzlar aqlsizlarni boshqaradi, oqillar esa ularni boshqaradi». Oqillar nimani boshqaradi?

Javob: Yulduzlarni.

158-savol: Avreliy Avgustin u haqda: «Agar mendan odamlar uning nima ekanligini so‘ramagunlaricha men uni biladiganga o‘xshayman, biroq u nima ekanligini boshqalarga

chuqurroq tushuntirmoqchi bo‘lsam, uni hargiz bilolmasligimni his etaman» degan. U nima haqida shunday degan?

Javob: Vaqt.

159-savol: Payg‘ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vassalam aytganlar: «U bamisoli Allohning yerdagi bayrog‘idir. Qachonki biror bandasiga yomonlikni iroda qilsa, uning bo‘yniga shu bayrog‘ini ilib qo‘yadi». U nima?

Javob: Qarz.

160-savol: Ularning har biriga quyidagi ta’riflar berilgan: Ro‘zg‘orning qassobi va baqqoli; oilaning tabibi; qizlarning sepi; qozonning yog‘i; qorinning belbog‘i; imoratning suyagi, qozon olovi; ham obi yevg‘on, ham dori-darmon. Ular nimalar?

Javob: Bular yetti xazina: sigir, asalari, ipak qurti, objuvoz, tegirmon, o‘rmon va tovuq.

161-savol: Morze kodida o‘zgaruvchan koddan kamroq, o‘zgarmas koddan ko‘proq foydalaniladi. Bunda nuqta va tire o‘rnida aynan o‘sha ikki belgi ishlatiladi. Ular qaysilar?

Javob: Plyus va minus.

162-savol: Ular xar yili kuzda dexqonlardan hosildan mahsulot hisobida 1-2 g‘alvir g‘alla undirar edilar. Agar ular kimligini topgan bo‘lsangiz, ushbu undirib olingan ulushning nomini ayting.

Javob: Mirobona (bular miroblar edi).

163-savol: Spenser fikricha bu hissiyotga to‘lgan nutq oxangi, Darwin fikricha qushlarning sayrashi va hayvonlarning o‘z juftlarini chaqirishi, Byuxer fikricha ibtidoiy odamlarning mehnat usullari, Shtumpf fikricha ibtidoiy odamlarning chaqiriq tovushlari, Kombare fikricha esa jodu sehrlash marosimlari uning ilk manbalari xisoblanadi. U nima?

Javob: Musiqa.

164-savol: Bu mayda toshlar buyrak shaklida bo‘lganligidan qadimda o‘sha toshlar buyrakni davolash xususiyatiga ega deb ishonganlar. Bu holat toshning nomida o‘z ifodasini topgan. Ushbu tosh qanday ataladi?

Javob: Nefrit.

165-savol: Nobel mukofotini topshirish tantanasi Stokgolm va Osloda 10 dekabrda o‘tkaziladi. Nega aynan 10 dekabrda?

Javob: Chunki, 1896 yil 10 dekabrda Alfred Nobel vafot etgan.

166-savol: Nimaning orqa tomonida biz ushbu familiyalarni ko‘rishimiz mumkin: Artamonov, Petrov, Firsov, Vant Goff, Korolev, Gavrilov, Alexin, Grachev, Kondratyuk, Chernishev va x.k.?

Javob: Oyning orqa tomonida (Bular u yerdagi kraterlarning nomlari).

167-savol: Xaros Mann yozgan: «U arqonga o‘xshaydi – biz uni kundan kunga bitta toladan o‘rib boramiz va ohir oqibat uni uzish uchun bizning kuchimiz yetmay qoladi». U nima?

Javob: Odat.

168-savol: Moskvaning «Progress» nashriyatida 1966 yilda chiqqan kitobda 3 ta Rim imperatori, 10 ta AQSh prezidenti va ko‘plab boshqa mashhur insonlarning ism-shariflarini ko‘rish mumkin. Ushbu kitobning siyosat va davlat boshqaruviga xech qanday aloqasi yo‘q, bu entsiklopedik ma‘lumotlar kitobi xam emas, o‘ylab ko‘ringchi, bu qanday kitob bo‘lishi mumkin?

Javob: Aforizmlar to‘plami.

169-savol: 1952 yilda O‘zFA Til va adabiyot instituti hamda Yozuvchilar uyushmasining birgalikda o‘tkazgan kengashi uni «Qonli urushlarni ko‘klarga ko‘tarib maqtovchi, xon va beklarning talonchiligi va ularning kambag‘al xalqqa o‘tkazgan zulmini dabdaba bilan kuylovchi, millatchilikni targ‘ib qiluvchi, xalqqa qarshi asar», -deb baxoladi. U qaysi asar?

Javob: «Alpomish» dostoni.

170-savol: Hadisi Sharifda shunday yoilgan: «Qachonki Alloh Taolo biror podshohga yaxshilikni hohlasa, o‘sha podshohga uning yaxshisini bahsh etur, u unutgan paytda eslatadi, eslagan paytda yordamlashadi. Va agar Alloh podshohga yomonlikni istasa, o‘sha podshohga uning yomonini ato qilur, u unutsa, eslatmaydi, eslasa yordamlashmaydi». U kim yoki nima?

Javob: Vazir.

171-savol: Mahmudovning «Mehmonnoma» kitobida shunday yozilgan: «Juda issiq va suyuq ovqatlar dasturxonga keltirib qo‘yilgandan keyin unga albatta o‘sha narsani qo‘shib berish maqsadga muvofiq» deyilgan. U nima?

Javob: Yog‘och qoshiq.

172-savol: Mashhur qadimgi yunon faylasufi Pifagordan so‘ragan ekanlar: «Sen donishmandmisan?». U kamtarlik bilan: «Yo‘q, men donishmand emasman. Men bor-yo‘g‘i uman» degan. Kimman degan?

Javob: Donishmandlikni sevuvchi ya‘ni faylasufman.

173-savol: Payg‘ambarimiz u xaqida shunday deganlar: «U zulmatda quyosh, vaxshatda hamroh, yolg‘izlikda yo‘ldosh, begona yurtda sirdosh, og‘ir damda raxbar, dushmanga qarshi quroldir». U nima?

Javob: Ilm.

174-savol: Volter aytgan: «U yo‘q narsa. Bu dunyoda ro‘y beradigan xamma narsalar yo sinov,

yoki jazo, yohud mukofot va yoinki avvaldan yuborilgan xabardir». U nima?

Javob: Tasodif.

175-savol: Erkak qoramolni biz buqa yoki ho‘kiz deymiz. Buqa bilan ho‘kizning farqi nimada?

Javob: Buqa-bichilmagan yosh erkak qoramol. Xo‘kiz – 2 yoshdan oshib, qo‘shga yaraydigan holga kelgan bichilgan erkak qoramol.

176-savol: Bu so‘z arab tilidan olingan bo‘lib, «xalqni va vatanni omon saqlovchi», «tartib o‘rnatuvchi» kabi ma‘nolarni beradi. Tarixiy adabiyotlarda u qo‘llanma xamda qoida ma‘nolarida ishlatilgan. Bu qanday so‘z?

Javob: Zobit.

177-savol: Bu so‘z asli yunoncha so‘z bo‘lib so‘zma-so‘z tarjimasida aynan «muqaddas o‘yiq» degan ma‘noni bildiradi. Bu qanday so‘z?

Javob: Ieroglif.

178-savol: Bu so‘z asosan «dramatik spektakl oralig‘ida ijro etiladigan musiqali drama yoki opera» degan ma‘noni beradi. Hozirgi kunda bu so‘z san‘at sohasida keng ishlatiladi. Bu qanday so‘z?

Javob: Intermediya.

179-savol: Inflyuentsa italyan tilidan olingan bo‘lib, «tarqalaman» degan ma‘noni bildiradi. 1780-82 yillarda bir kasallik yoppasiga tarqalganida unga shunday nom berilgan edi. Hozirgi kungacha bu kasallikning ikkinchi nomi bo‘lib qolgan. Bu qaysi kasallik?

Javob: Gripp.

180-savol: Sigir suti tarkibida kazein deb nomlangan murakkab oqsil mavjud. Bu oqsilning nomi bir sut maxsulotining lotincha nomlanishidan kelib chiqqan. Qanday maxsulotning?

Javob: Pishloq (caseus).

181-savol: Bu qushni ispanlar 15 asrning oxirlarida Kanar orollaridan Yevropaga olib kelganlar. Ho‘sh, bu qushning nomi nima?

Javob: Kanareyka.

182-savol: Xalqaro birliklar tizimi SI da yettita asosiy birliklardan biri – yorug‘lik kuchi birligi kandella bilan belgilanadi. Bu so‘z qadimgi lotincha so‘z bo‘lib xisoblanadi. U qanday ma‘noni bildiradi?

Javob: Sham (candella).

183-savol: Karamel konfetlarini barchamiz sevib iste‘mol qilamiz. Lekin karamel so‘zining

ma'nosini xamma xam bilmasa kerak. Bu so'z lotincha cannamella so'zidan olingan bo'lib bir o'simlikning nomi xisoblanadi. Qaysi o'simlikning?

Javob: Shakarqamish.

184-savol: Bu so'z yunoncha «ko'rpa-to'shak» degan so'zdan olingan. Albatta dastlab u vujudga kelganida u yerda ko'rpa-to'shakdan boshqa ko'p narsa bo'lmagan. Hozirda u o'ta rivojlangan bo'lsada, baribir ko'rpa-to'shaksiz u yerni tasavvur qilib bo'lmaydi. U qaysi joy?

Javob: Klinika (kline).

185-savol: Yunonistonda uzumchilik va vinochilik xudosi Dionis sharafiga o'tkazilgan bayramda odatdagidan boshqacha kiyimda qatnashgan va hammaning kayfiyatini ko'targan odamlar keyinchalik o'z nomlarini bir soha kishilariga berganlar. Ularning nomi nima bo'lgan?

Javob: Komik.

186-savol: Uning vatani AQSh. 1922 yilda u Frantsiyada topildi. Keyinchalik u o'zining Yevropa bo'ylab sayohatini davom ettirib, Sharqiy Yevropaga, Ukrainaga, Belorussiyaga yetib boradi. O'zbekistonga u Belorussiyadan 1972 yilda kelib qoladi. Ho'sh endi aytingchi, u AQSh ning qaysi shtatidan kelgan?

Javob: Kolorado.

Izoh: Bu yerda gap kolorado qo'ng'izi xaqida ketmoqda.

187-savol: Bu asarni deyarli barchamiz sevib o'qiganmiz. U dastlab paydo bo'lganida «Alif layla va layla» deb nomlanadi. Bu asar o'zbekcha qanday nomlanadi?

Javob: «Ming bir kecha».

188-savol: Mehrob so'zi arab tilida harb joyi, ya'ni jang joyi degan ma'noni bildirar ekan. Aytingchi, u yerga nega aynan shunday nom berilgan?

Javob: Bu yerda namoz paytida shayton bilan imom o'rtasidagi urush bo'ladi degan tasavvurlardan kelib chiqqan holda.

189-savol: Bu munosabat belgisi matematika faniga 1557 yilda Rekord tomonidan kiritildi. Bu qaysi belgi?

Javob: Tenglik belgisi.

190-savol: Ularni Tojikistonda jo'gilar, Armanistonda bosha, Angliyada misrlik, Eronda qoracha, Frantsiyada fir'avn qabilasi, Finlyandiyada qora deb ataydilar. Ho'sh ular bizda qanday ataladi?

Javob: Lo'lilar.

191-savol: Bu harbiy unvon Frantsiyada 15 asrda paydo bo'lgan, o'sha paytlarda boshlig'i vazifasini vaqtinchalik bajarib turgan ofitserni shunday deb atashgan. U qanday atalgan?

Javob: Leytenant.

192-savol: Bu sintetik tolani Polshada elana, Angliyada terilen, AQShda dakron, Yaponiyada tetoron, Germaniyada diolen va Frantsiyada tergal deb nomlashadi. U bizda qanday nomlanadi?

Javob: Lavsan.

193-savol: Bu transport turi 20 asr boshlarida paydo bo‘lgan. Ko‘pchilik uni tramvayning o‘tmishdoshi deb biladi. Bu transportning asosiy xarakteristikasi kuchi nima edi?

Javob: Otlar (konka-kon).

194-savol: Uyg‘unning she‘ridan bir to‘rtlikni eshiting:

Qay yoshdan yurakda ishq o‘ti yonar?

So‘rog‘in salomday so‘raydi alik.

Aynandan yoshlik boshlanar,

Ungacha bo‘lgani bari bolalik.

Ushbu to‘rtlikda tushirib qoldirilgan so‘zlarni toping.

Javob: Birinchi bo‘sa (Uyg‘un haq J).

195-savol: Qadimgi hind traktatida shunday yozilgan: «Aql mayli hurmatni tug‘dirsa, qalb mayli do‘stlikni, tana mayli hohishni tug‘diradi. Aql, qalb, tana mayli bir bo‘lib uni tug‘diradi». Nimani tug‘diradi?

Javob: Muhabbat.

196-savol: O‘rta asr Xitoy aforizmi (Syuy Syuemo)da shunday iboralar bor: «Erkak kishi ayolni chanqoqdan azob chekib, suvga intilayotgan yo‘lovchidek sevadi». Nega aynan shunday o‘xshatish qilingan?

Javob: Undan o‘z extiyojini qondirib bo‘lgandan so‘ng unga bo‘lgan qiziqishi yo‘qoladi.

197-savol: O‘rta asr Xitoy aforizmi (Syuy Syuemo)da shunday iboralar bor: «Ayol kishi erkakni issiqdan toliqib salqinga intilayotgan yo‘lovchidek sevadi». Nega aynan shunday o‘xshatish qilingan?

Javob: U hatto o‘zi hohlagan narsaga erishsa ham uni hech tark etmaydi.

198-savol: Aleksandr Dyuma: «Bu boshqalardan ko‘ra o‘ziga ko‘proq azob berish san‘atidir» degan. Nima haqida shunday degan?

Javob: Rashk.

199-savol: L.N.Tolstoy «Badiiy asarlarda, romanlarda, kinolarda syujetlar, voqealar rivojlanib borib oxirida hammasi u bilan tugaydi. Hayotda esa aksincha, hamma narsa undan keyin boshlanadi». Tolstoy u deganda nimani nazarda tutgan?

Javob: To‘y.

200-savol: Xoratsiy Safrin shunday degan: «Ayol bilan tanishish uchun bir necha daqiqa yetarli, uni yaxshi bilish uchun yillar kerak, haqiqiy va to‘liq bilish uchun.....». Nima qilish kerak?

Javob: U bilan ajralish kerak.

201-savol: Aleksandr Ratner aytgan: «Bu ayollarga bo‘lgan sevgi-muhabbatning benihoya kuchliligi oqibatidir». U nima?

Javob: Bo‘ydoqlik.

202-savol: Ambroz Birs fikricha: «Italiyada bu go‘zal ayoldir, Angliyada esa kuchli zahardir. Ikki til orasidagi bu o‘xshashlik kishini hayratga soladi». Bu qanday so‘z?

Javob: Beladonna.

203-savol: U o‘zining asarlari tiraji bo‘yicha Bibliya va Shekspir pesalaridan keyin uchinchi o‘rinni egallaydi. Uning asarlari bir yuz uchta tilga tarjima qilingan. Uning eng asosiy qahramonlaridan biri Nikaragua pochta markasida tasvirlangan. Bu mashxur ijodkor kim?

Javob: Detektiv qirolichasi Agata Kristi.

204-savol: «Haqiqiy yigit arslonday irillay olishi kerak» degan shior ostida xar yili Janubiy Afrikaning Nelotreyt shaxrida musobaqa o‘tkaziladi. Musobaqada arslonday irillay olgan yigitlar saralanadi. Musobaqa g‘oliblari bilan sovrindorlari unga eng mos deb hisoblanilar ekan. Nimaga?

Javob: Kuyovlikka.

205-savol: Turkiyaning ayrim qishloqlarida hozirgi kunga qadar qiz kuyovning haqiqiy yigit ekanligini ko‘rsatish maqsadida uning eshigi oldida ko‘pchilikni yig‘ib unga nisbatan bir ishni qiladi. Nima qiladi?

Javob: Kuyovning soqol va mo‘ylovini qirib tashlaydi.

206-savol: Ximolay tog‘ida yashaydigan sherp qavmida ikki aka-uka xovlini bo‘lmaslik uchun bir qizga uylanishar ekan. Agar o‘sha oilada uch bola tug‘ilsa kattasi bilan kenjasi bir qizga uylanadi. O‘rtanchasichi?

Javob: Cherkovga ketadi.

207-savol: Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarida unga tog‘dan-tog‘gacha o‘tkazilgan tom» deb ta’rif berilgan. U nima?

Javob: Buyuk Xitoy devori.

208-savol: To‘ng‘uzlug‘ – G‘arbiy Anato‘liyadagi shahar. XI asrda bu yerlarni Saljuqiylar zabt etganlarida atrofda to‘ng‘iz ko‘p bo‘lganligi uchun shaharni shu nom bilan ataganlar. Lekin

shaharning xristian axolisi islomlashib, atrofdagi to‘ng‘izlar ham qirilib bitgandan so‘ng Usmoniylar davrida butunlay musulmonlashgan shahar ahli shaharlarining nomidan orlanib, XV asr oxiridan uni u yerdan ancha uzoq bo‘lishiga qaramay bir nom bilan ataydilar. Qanday nom?
Javob: Dengizdan ancha uzoq bo‘lishiga qaramay Denizli deb atashadi.

209-savol: Xitoy imperatori (Min sulolasi 1368 yil) Amir Temurga yuborgan maktublarida unga bir nom bilan murojaat qilardi. Diplomatiya tilida esa bu «sen menga tobesan» degan ma’noni bildirardi. Imperator o‘z maktublarida Amir Temurga qanday murojaat qilardi?
Javob: «O‘g‘lim» deb.

210-savol: Bu «hovli»ning dastlabkisi Frantsiya qiroli Genrix VIII farmoniga asosan 1529 yilda Parijda bunyod etilgan. Toshkentda bunday «hovli» ilk bor 1903 yilda qurilgan. Hozirgi kunda O‘zbekistonda 530 ta bunday «hovli» bor. Shu hovlilarning eng kattasini ayting.
Javob: «Yunusobod» tennis korti (ing.court – hovli).

211-savol: Konyak spirti 3,4,5 yil saqlanishi mumkin. Biz konyak spirti necha yil saqlanganini qanday bilishimiz mumkin?
Javob: Konyak shishasidagi yorliqda ko‘rsatilgan yulduzlar soniga qarab.

212-savol: Uning ota-onasi asli odessalik. U yoshligidan xotirasi juda kuchli bo‘lgan. 4 yoshida bobosi ko‘rsatgan fokuslarni tezda o‘zlashtirib, izidan qaytarar edi. 7 yoshdan mustaqil o‘zi o‘ylab topgan fokuslarni odamlar oldida namoyish eta boshlagan. 15 yoshida «Afsungarlar jamiyati»ga qabul qilingan. U kim?
Javob: Asli ismi Dodik Kotkin bo‘lgan Devid Kopperfild.

213-savol: Bu so‘z ingliz tilida dexqon uyi degan ma’noni bildiradi. Asosan 16 asr oxiri 17 asr boshlarida Angliyada qurila boshlagan, keyinchalik Skandinaviya, AQSh va b. joylarda tarqalgan. Bu dexqon uyini biz qanday ataymiz?
Javob: Kottej.

214-savol: Bu asarning muallifi o‘z asari haqida shunday yozgan: «Men bu kitobni mahsus alifbe tartibida hikmatli so‘zlar, saj’lar, maqollar, qo‘shiqlar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim». Bu qaysi asar va uning muallifi kim?
Javob: «Devonu lug‘otit turk», Mahmud Qoshg‘ariy.

215-savol: Bu so‘z yunonchada «katta kosa» degan ma’noni bildiradi. Bunday «katta kosa»lar yerdan ko‘ra boshqa joyda ko‘proq. Qaerda?
Javob: Oyda.
Izoh: Gap bu yerda kraterlar haqida ketmoqda (krater-katta kosa).

216-savol: Bitmay qolgan ish; inson tanasining bir qismi; peshona teri bilan topilgan pokiza ne'mat; qilgan nojo'ya ishlar uchun koyish va o'yinga yolg'on aralashtirib nohaq o'ynash. Bu tushunchalarning umuiyligi nimada?

Javob: Bular barchasi o'zbek milliy kurashida ishlatiladigan atamalar: chala, yonbosh, halol, tanbeh, dakki va g'irrom.

217-savol: Xorunjy Potanin 1829-30 yillarda Toshkentda bo'lganida «Shahar markazida hiyla baland do'nglik joylashgan bo'lib, shahar aholisi u yerda tez-tez sayillar, bayramlar o'tkazish uchun to'planganlar. Bu yerdan shahar hududi xuddi kaftdek ko'zga tashlanib turadi» deb yozgan. U yuqoridagi ta'rifini Toshkentdagi qaysi joyga nisbatan bergan?

Javob: Ko'kcha (ko'hcha so'zi forschadan tarjim qilinganida tog'cha, tepalik degan ma'noni bildiradi).

218-savol: Bu yerda yashovchi xalq juda hushfe'l xamda ochiqko'ngil. Ular har bir mehmonni «Selemat datang» deya yuzlarida tabassum bilan qarshi oladilar. Ular o'zlarini «Bumiputra» ya'ni «zamin o'g'lonlari» deb ataydilar. Bu qaysi xalq?

Javob: Malayziyaliklar (malaylar).

219-savol: 1927 yil, Yaponiya «Monsyu» - 9810 m. 1952 yil Britaniya «Chelenjer II» - 10863 m. 1959 yil sobiq SSSR «Vityaz» - necha m?

Javob: 11022 m.

Izoh: Bu yerda gap mana shu yillari mana shu davlatlarning shu nomdagi suvosti kemalari Marianna botig'ini chuqurligini o'lchab, bergan ma'lumotlari haqida ketmoqda.

220-savol: U II - Jahon urushida qozonilgan buyuk g'alaba sharafiga yodgorlik sifatida barpo etilgan. Uning asosini A. Ayzenshteyn Sharqiy Prussiyaning Allenshteyn shahridan keltirib o'rnatgan. U nima?

Javob: Toshkent kuranti.

221-savol: Unda 8 ta g'ildirak bo'lib, ularning har biri o'z dvigateliga ega. Televizion kameralar uning ko'zlari vazifasini bajargan. U nima?

Javob: «Lunoxod-1» apparati.

222-savol: Yaponiyada ularni dasturxonda ko'rishsa xech kim ajablanmaydi. Ushbu kunchiqar mamlakatda uni taom sifatida iste'mol qiladilar. Ularni qaynatib, ustiga uksus sepib, ozgina shakar ham solishadi. Shundan keyin qarabsizki shirin va mazali taom tayyor. Umuman, Yaponiyada ular uchun yuzlab retseptlar bor. U nima?

Javob: Xrizantema guli.

223-savol: Frantsuzlar uchun ovqatning sifati muhim, inglizlar uchun odamning ovqatlanish

paytida o‘zini tuta bilishi muhim. Ho‘sh endi aytingchi, bu borada nemislarni nima qiziqtiradi?

Javob: Dasturxonga tortilgan taomlarning soni.

224-savol: Hadisni eshiting: «Xotinlarga bashorat: homilador bo‘lurlar, tug‘arlar, bolalarini emizadilar, bolalariga marhamatli ham bo‘lurlar, agar erlari bilan yaxshi muosharat qilib, namoz ham o‘qisalar o‘sha narsa shubhasizdir». Nima?

Javob: Jannatga kirishlari.

225-savol: «Zichi Ko‘ragoniy» asarida odatdagi matematik formulalar ham, tenglamalar ham, yulduzlar nomi ham yo‘q, hatto ushbu asarda ulardan birortasini uchratmaysiz. Ular o‘sha paytlarda harflar bilan ifodalangan. Ular nimalar?

Javob: Raqamlar.

226-savol: Rossiyada joylashgan «Kasperskiy laboratoriyasi» tahliliy markazi u yerda tarqalgan viruslar haqidagi ma’lumotni e’lon qildi. O‘tgan yili 9 ta virus epidemiyalari va 26 ta lokal virus tarqalgan. Bu viruslar qaerda tarqalgan?

Javob: Internetda.

227-savol: Anton Chexov u narsani doimo yonida olib yurgan, uning aksi o‘laroq Buninda u narsa umuman bo‘lmagan. U nima?

Javob: Yon daftar.

228-savol: XIX asrda germaniyalik Paul Shults ismli qassob ish qidirib Amerikaga borib qoladi. U har kuni kushxonadan qaytayotganida o‘zi so‘ygan mollarning ichaklarini o‘zi bilan birga uyiga olib kelib, ularning ichini har xil masalliqlar bilan to‘ldirib, iste’mol qilar edi. Shu tariqa Shults uning ixtirochisiga aylanadi. U nimani ixtiro qilgan?

Javob: Sosiska.

229-savol: Barchamiz turli sosiska turlarini bilamiz: mol go‘shidan, qo‘y go‘shidan, tovuq go‘shidan tayyorlangan va h. Sosiskalar ichida sutli sosiskalar xam bor. Ularga sut qo‘shiladimi, nima uchun ular shunday ataladi?

Javob: Sutli sosiskaga sut qo‘shilmaydi, albatta. Ularning bunday atalishiga sabab ular sut emib turgan cho‘chqa bolasining go‘shidan tayyorlanadi.

230-savol: Hindistonda har oyda ularga ma’lum miqdorda pul to‘lab boriladi. Bundan tashqari, ular bepul tibbiy xizmatdan foydalanishlari mumkin. Ular qarigan paytida xam davlat qaramog‘ida bo‘lishadi. Ular buning uchun davlat bilan shartnoma tuzishadi. Agar ular shartnomani buzishsa, ularni qamoq va jarima jazosi kutadi. Ular kimlar?

Javob: Hech qachon turmush qurmaslikka qaror qilgan insonlar.

Izoh: Hindistonda axoli soni keskin o‘sib borayotganligi munosabati bilan hukumat tabiiy

o‘shini shu yo‘l bilan kamaytirish maqsadida hohlovchilarga shunday shartnomani taklif qiladi.

231-savol: Samyuel Jonson: «Qachonki ikkita angliyalik uchrashib qolsa, ularning birinchi kalomi hamisha mana shu mavzudan boshlanadi» degan. Qaysi mavzudan?

Javob: Ob-havo xaqida.

232-savol: A.S.Pushkin aytgan: «Ular ma’rifatning pochta otlaridirlar». Qaysi kasb vakillari haqida shunday degan?

Javob: Tarjimonlar.

233-savol: Rim huquqiga tartib va to‘plam beruvchi mashhur Yustinian kodeksida ularning sud jarayonidagi ishtiroki muhim ahamiyatga ega ekanligi to‘g‘risida farmon bor. Unda shunday deyiladi: «Ular guvoh emaslar, ular guvohlardan ham, hatto sudyalardan ham yuqoridirlar». Ular kimlar?

Javob: Vrachlar.

234-savol: Arab alximigi Jobir (Geber) tomonidan VIII asrda kashf qilingan modda Rim papapsi Aleksandr VI ning o‘g‘li, XVII asrda yashagan Teofaniya di Adomaga juda qo‘l keladi va u ushbu kashfiyot yordamida «akva tafana» nomli suv tayyorlaydi. U bu suvdan g‘arazli maqsadda foydalanadi. Siz menga uning bu suvdan nima maqsadda foydalanganini emas, o‘sha moddaning nomi nima ekanligini ayting.

Javob: Margimush.

235-savol: Bu so‘z ikki yunon xudolari: Germes (erkak) va Afrodita (ayol) nomlaridan kelib chiqqan bo‘lib o‘zida bu ikkovining bir xususiyatini birlashtiradi. Bu qanday so‘z?

Javob: Germafrodit (O‘zida ikki jinsning belgilarini saqlovchi organizm).

236-savol: Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkilotining ma’lumotlari bo‘yicha, undan o‘lish hollari yurak-qon tomir kasalliklari, onkologik kasalliklardan o‘lish xollaridan keyin uchinchi o‘rinda turadi. U qanday sabab?

Javob: Avtohalokatlar.

237-savol: U haqida Ismoil Jurjoniy «U hamma uchun foydali, charchoqni chiqazadi, ovqat hazm qilishni yaxshilaydi» degan. Ruslarning 1770 yilda chop etilgan kitobida uni «ikkinchi ona» deb tasvirlaydilar. U nima?

Javob: Hammom.

238-savol: Hadisda shunday deyilgan: «Pishay desang u ishni qil. Unda besh foyda bor: ko‘ngil yozish, kuch to‘plash, ilm va adab o‘rganish, dono kishilar bilan ziyoratda, suxbatda bo‘lish». Qaysi ish haqida shunday deyilgan?

Javob: Safar qilish.

239-savol: Abdulla Qodiriy unga shunday ta'rif bergan: «Bu zo'rlikniki emas, haqliknikidir, bu zolimlarniki emas, mazlumlarimdir. Shuning uchun buning ma'nosi ham boshqachadir». Qodiriy nimaga nisbatan shu ta'rifni bergan?

Javob: «Mushtum»ga nisbatan.

240-savol: Peruda aqlli otalar avokado daraxti mevasi pishgan davrda o'z qizlarini ko'chaga chiqarmaydilar. Nega?

Javob: Chunki, Peruda eng kuchli shahvoniy hissiyotni qo'zg'atuvchi meva avokado hisoblanadi.

241-savol: Abdulla Oripovning shunday satrlari bor:

Men ham yashayapman o'z zamonamda,

Davrimdan qayga xam tushardim yiroq.

Va lekin bilmadim mening qonimda

Qaysi bir bobomning hislati ko'proq.

Yuqoridagi satrlarning mazmunidan kelib chiqqan holatda aytingchi, ushbu she'r qanday nomlanadi?

Javob: Genetika.

242-savol: Tog'ay Murodning «Oydinda yurgan odamlar» asarida u shunday ta'riflanadi: «U-elimiz ta'rixi. Unda elimiz kechirmish hayitlari bor, fojialari bor. U-qo'shiq, elimizning azaliy ham so'ngsiz qo'shig'i». U nima?

Javob: Atlas.

243-savol: Ular o'zlarini «Ni Malagasi» deb atashadi. Aynan mana shu so'zdan ularning frantsuzcha atalishi «malagasilar» kelib chiqqan. U qaysi xalq?

Javob: Madagaskarliklar.

244-savol: Madagaskarda biror jonivor uchalik e'zoz ko'rmagan. Orolning shimoli-g'arbida yashovchi tsimixeti elati uni kuch-qudrat timsoli sifatida etirof etishadi. Uni o'ldirish juda behosiyat ish hisoblangan. Chunki uni o'ldirish ajdodlar ruhini ham halok qilishni bildiradi. U qaysi hayvon?

Javob: Timsox.

245-savol: Boburning «Boburnoma» asarida u kishiga shunday ta'rif beriladi: «Ustoz Qulmuhammad va shayhi Noyi va Husayn Udiykim sozda ilg'or, usta edilar, bekning tarbiyat va quvvati yordami bila muncha taraqqiy va shuxrat qildilar. Ustod Behzod va Shoh Muzaffar tasviri bekning sa'y va ehtimoli bilan mundoq mashxur va taniqli bo'ldilar». Yuqorida tilga

olingan «bek» kim?

Javob: Alisher Navoiy.

246-savol: Ular ba'zi joylarda bahshi deb ham yuritiladi. Uning asosiy qurollari doira yoki qamchi, ba'zan dutor yoki hivchinlardan iborat bo'ladi. Ular kimlar?

Javob: Parixonlar (duoxonlar, azayimxonlar).

247-savol: Leonardo da Vinchi uning g'oyasini ilmiy asoslab bergan. Uning hozirgi kundagi ko'rinishini Rossiyada birinchi marta Kotelnikov 1911 yilda yaratgan. 18 sarda esa Mongolfe ismli frantsuz u bilan minoradan sakragan. U nima?

Javob: Parashyut.

248-savol: Uning qirqdan ortiq turi bor: ivitma, bedana, to'g'rama, to'y, sofaki, qorma, suzma va b.. Ularni tayyorlash o'zbeklar o'rtasida, ayniqsa erkaklarga hos fazilat hisoblanadi. U nima?

Javob: Palov.

249-savol: 20 yil davomida qurilgan bu bino to'g'risida Abdurazzoq Samarqandiy quyidagicha ma'lumot beradi: «Temur ishga yaroqli bo'lganlarning hammasini Xorazmdan Movarounnaxrga ko'chishga buyruq berdi». Qaysi binoning qurilishi haqida gap bormoqda?

Javob: Oqsaroy.

250-savol: O'rta Osiyo xalqlarida, jumladan, o'zbeklarda «osh xalol» degan odat bo'lgan. Bu bir kasb egasining xalol mexnati uchun berilgan osh, taomdan iborat bo'lgan. «Osh xalol» kimga berilgan?

Javob: Podachilarga.

251-savol: Dastlab 16-17 asrlar Frantsiyadagi katta hashamatli uylar shunday atalgan.

Keyinchalik shularga taqlidan qurila boshlagan shahardagi bir turkum binolar o'sha nom bilan atalgan. Ular qanday atalgan?

Javob: Otel.

252-savol: 12-13 asrlarda Yaqin Sharqdagi ayrim mamlakatlardagi davlat boshliqlarning unvoni; Mamluklar davrida Misr lashkarboshisi; Saljuqiy sultonlar valiahdlari murabbiysi. Bularning barchasi bir nom bilan atalgan. Siz menga ular qanday atalganini emas, shu nomga ega bo'lgan adabiy qahramonning muallifini ayting.

Javob: Abdulla Qodiriy.

Izoh: Bu yerda gap «otabek» degan nom haqida ketmoqda. Otabek ismli adabiy qaxramon Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar» romanining bosh qahramoni.

253-savol: Bu sport turi 1900-yildan boshlab Olimpiada o'yinlaridan joy olgan. 1953 yildan

jaxon va Yevropa chempionatlari o‘tkaziladi. Halqaro federatsiyasi FEI 100 ga yaqin mamlakatlar milliy federatsiyalarini birlashtiradi. O‘zbekistonning bu sport federatsiyasi FEI ga 1993 yildan a‘zo. Bu qaysi sport turi?

Javob: Ot sporti.

254-savol: O‘zbekiston va bir qancha mamlakatlarda u 735,499 Vt, AQSh va Buyuk Britaniyada esa 745,7 Vt. Bunga qarab, AQSh va Yevropada ular bizdagiga qaraganda sal baquvvatroq ekanda degan hulosaga kelish mumkin. Ular kimlar yoki nimalar?

Javob: Otlar (Gap «ot kuchi» quvvat o‘lchov birligi haqida ketmoqda).

255-savol: Bu voqea Bangkokda 4 marta, Dehlida 2 marta, Manila, Tokio, Jakarta, Tehron, Seul, Pekin va Xirosimada 1 marta sodir bo‘lgan. Uning oxirgisi qaerda sodir bo‘lgan?

Javob: Janubiy Koreyaning Pusan shaxrida (2002 yil).

Izoh: Gap Osiyo o‘yinlari haqida ketmoqda.

256-savol: U namlik yerni yoqtiradi. «Tagim ko‘l bo‘lsin, tanam cho‘l bo‘lsin» degan maqol xam borki, buni bog‘bonlar uning tilidan aytishgan. U nima?

Javob: Anjir daraxti.

257-savol: Xalqimizda dexqonlarning piri-Bobo Dexqon, yilqichilarniki -Qambar ota, sigir boquvchilarniki - Zangi ota, echki boquvchilarniki - Saksak ota, poyafzal tikuvchi kosiblarniki - Boboi Parado‘z,chilangarlarniki - Hayoti Dovud bo‘lgan. Qo‘y boquvchilarning piri kim bo‘lgan?

Javob: Cho‘pon ota.

258-savol: Xalqimizda arpa og‘sa, kanduginingni (g‘alla soladigan joy) tuzat, bug‘doy og‘sa, somonxonangni degan ibora bor. Buni qanday izohlash mumkin?

Javob: Arpa og‘sa (boshini ko‘tara olmay bir tarafga og‘sa)soyada doni to‘lishib, hosildor bo‘ladi,bug‘doyda esa buning tamomila aksi bo‘ladi.

259-savol: Abu Ali ibn Sino «Tib qonunlari» asarida unga shunday ta’rif beradilar: «U gul va boshqa narsalarning ustiga tushadigan, ko‘zga ko‘rinmas shudringdir, u shunday bir bug‘ki, yuqoriga ko‘tarilib, havoda yetiladi va kechasi quyushib pastga tushadi». U nima?

Javob: Asal.

260-savol: O‘rta Osiyo xalqlari uni «to‘qson» deb ataganlar. Yana bunga ehtiyot yuzasidan 10 ni qo‘shib, yuzga to‘lg‘azib, «Sad pok» deb yuritganlar. Ular nimani shunday ataganlar?

Javob: Qishni.

261-savol: Xalqimizda «Baloning mingi Sirda, biri qirda» degan maqol bor. Bu maqol nima xaqida aytilgan.

Javob: Sirdaryo daryosi xaqida.

Izoh: Ilgari Sirdaryo juda ko‘p toshib, uning bo‘yida yashovchi xalqqa ko‘p talofatlar yetkazgan, qirga chiqib ketgan xalq esa, bunday ofatga duchor bo‘lmas edi.

262-savol: O‘tmishda ba‘zi oqlig‘i (sut,qatiq) yo‘q xonadonlarga sigiri borlar hurmada qatiq olib kelib berardilar. Ushbu hurmalarni qaytarib berayotganlarida unga bir narsa solib berishgan. Nima solib berishgan?

Javob: Moliga yem bo‘lsin deb kepak solib berishardi.

263-savol: Etnograf Snesev shunday yozadi: «Xorazmda u to‘g‘risida «U xudoga zikr aytadi» derdilar. Bundan tashqari, Xorazmda u o‘z ishini bevaqt sodir etsa, unga nisbatan keskin choralar ko‘rilib, kallasi olingan». Bir daqiqadan so‘ng o‘sha kallasi olinganni nomini ayting.

Javob: Xo‘roz (bevaqt qichqirganida).

264-savol: Xalqimizda «Bo‘rining yesa ham, yemasa ham og‘zi qon» degan maqol bor. Bu maqolning ma‘nosi barchamizga ma‘lum. Lekin bu ibora bejiz aytilmagan. Bu iboraning vujudga kelishiga nima sabab bo‘lgan?

Javob: Bo‘ri doimo og‘zini ochib, qizil tilini osiltirib yurgani uchun og‘zi qonday bo‘lib ko‘rinadi.

265-savol: Qishloq ho‘jaligi fanlari doktori, professor Z. Tursunxo‘jaevning yozishicha, agar ushbu maqolga amal qilinsa, hosildorlik gektariga 3 tsentnerdan 6 tsentnergacha yuqori bo‘ladi. Bir daqiqadan keyin shu maqolni aytib bering.

Javob: «Yer haydasang kuz hayda,kuz haydamasang yuz hayda».

266-savol: Xalqimizda «Jo‘jani kuzda sanaydilar» degan maqol bor. Jo‘jani nega aynan kuzda sanash kerak?

Javob: Bahorda tuxumdan chiqqan jo‘jani kuzgacha kalxat,tulki va b. yeb kuzgacha ularning soni kamayib, o‘zini eplab olgan jo‘jalargina qoladi. Aynan o‘shanda sanash kerak deyilmoqchi.

267-savol: Uning «qulog‘i chinqoq bo‘lmasin, oyog‘i oqsoq yo kasal bo‘lmasin; salimul a‘zosi benuqson bo‘lsin» degan shartlari bor. Bu shartlar nimaga nisbatan aytilgan?

Javob: Qurbonlikka so‘yiladigan qo‘y.

268-savol: Xalqimizda «Ko‘rmoq bor yemoq yo‘q» degan maqol bor. Qaerda ko‘rmoq bor yemoq yo‘q?

Javob: Diniy tushunchalarga ko‘ra, jannatda jamiki noz-ne‘matlar, oziq-ovqatlar bo‘larmish. Ammo ularni huddi tushda ko‘rgandek ko‘rish mumkin emish-u yeb-ichib bo‘lasmish.

269-savol: AQSh ning 17-prezidenti Endryu Jonson boshqa prezidentlar bir kasb vakillariga

ishonib topshiradigan ishni o‘zi amalga oshirgan. Bu ish bilan shug‘ullanib yuksak darajaga yetgan insonlar ham bor. Bu qanday ish bo‘lishi mumkin?

Javob: Tikuvchilik. Endryu Jonson o‘z liboslarini o‘zi tikkan.

270-savol: Angliyadagi eng taniqli qog‘oz ishlab chiqaruvchi korxonada rahbarining ismini hammamiz eshitganmiz. Uni ayting.

Javob: Vatman.

271-savol: Bu so‘z forschadan olingan bo‘lib, boshdan oxirigacha, butunlay, tamoman, to‘liq degan ma‘nolarni bildiradi. Biz bu so‘zni ishlatganimizda uning o‘zbek tilidagi tarjimai bilan birgalikda qo‘llaymiz. Bu qanday so‘z bo‘lishi mumkin?

Javob: Sarpo (Forschada sar-bosh, poy-oyoq degani, biz esa «bosh-oyoq sarpo» deymiz).

272-savol: O‘tkir Hoshimov o‘zining «Sakkizinchi mo‘‘jiza» rukni ostida bosib chiqarilgan bitiklarida shunday yozadi: «Dramaturgiyani adabiyot gultojisi deyishadi. Biroq menga qolsa uni adabiyot gultojisi degan bo‘lur edim. Negaki, unda proza ham, she‘riyat ham, dramaturgiya ham bor». U nimani adabiyot gultojisi deb atagan?

Javob: Romanni.

273-savol: Frantsiyaning Portugaliyadagi elchisi Jan Niko 1560 yili frantsuz qirolichasi Yekaterina Medichiga uni taqdim etgan va qirolichani bir darddan forig‘ qilgan. Jan Niko qirolichaga nima taqdim qilgan?

Javob: Tamaki o‘simligi bargalari.

Izoh: Yekaterina Medichi migren bilan og‘rigan edi, tamakidan foydalana boshlagandan so‘ng u o‘z dardidan forig‘ bo‘ladi, tamaki bargidagi alkaloid esa Jan Niko sharafiga nikotin deb ataladigan bo‘ldi.

274-savol: Ro‘dakiyning iste‘dodli shogirdi Shohid Balxiy shunday yozgan edi: «Bu ikkovi – nargis guli bilan atirguldir, ularhxech qachon birgalikda ochilmaydilar. Ulardan birinchisi kimda bo‘lsa, ikkinchisi bo‘lmaydi». U ikki narsnima?

Javob: Boylik va olimlik.

275-savol: Bizga ma‘lumki, har yili «Yil insoni» unvoniga sazovor bo‘lgan kishilar aniqlanadi. 1982 yili «Time» jurnali «Yil insoni» unvonini unga bergan. Bir daqiqadan keyin menga o‘sha yilgi «Yil insoni» ni ayting.

Javob: Kompyuter.

276-savol: Qadimgi lotin maqollarida shunday yozilgan: “Pigritia est mater omnia vitiorum” - ya‘ni u barcha kamchiliklarning onasidir. U nima?

Javob: Dangasalik.

277-savol: Abdulla Oripov bir nomli she'rida bu moslamaning insonda yo'qligiga achinadi. Lekin insonda sabot borligini aytadi. Unda esa sabot yo'qligi uchun insonda yo'q bo'lgan o'sha moslama borligini aytadi. U nima bo'lishi mumkin?

Javob: Qanot.

Izoh: Qushda-chi, sabot yo'q, shuning-chun unga Qochib qolmoq uchun qanot berilgan.

278-savol: Unga har qanday boylikning manbai, shon-sharafga olib boradigan yo'l, chinakkam olijanoblikning yagona unvonidir deb ta'rif berishgan. U nima?

Javob: Mehnat.

279-savol: Bu ro'yxatda it birinchi o'rinni egallaydi. Ot esa ushbu ro'yxatda oxirgi o'rinlardan birida turadi. Bu qanday ro'yxat bo'lishi mumkin?

Javob: Xonakilashtirilgan hayvonlar ro'yxati (Inson tomonidan it birinchi bo'lib xonakilashtirilgan, ot esa deyarli oxirgi xonakilashtirilgan hayvon hisoblanadi).

280-savol: Sherning ilonga aylanishi aql bovar qilmaydigan holat. Lekin bir asarda sherni ilon deb, o'qilon deb atashadi. U qaysi asar?

Javob: «Shaytanat» (Asad-arabchada sher degani).

281-savol: Bu qiymat suvda 225000, olmosda 124000, Kanada balzamida 198000, oltingugurt uglerodida 184000 ga teng. Bu qiymat havoda nechaga teng?

Javob: 300000 km/s (Gap yorug'lik tezligining turli muhitlardagi qiymati haqida ketmoqda).

282-savol: Ko'pchilik fiziklar uni to'g'ri tartibda eslab qolish uchun quyidagi rus tilidagi iborani yod olishni taklif etishadi: «Kajdiy oxotnik jelaet znat gde sidit fazan». Bu qanday ketma-ketlik?

Javob: Kamalakdagi ranglarning ketma-ketligi: krasniy (qizil), oranjeviy (olovrang), jeltiy (sariq), zeleniy (yashil), goluboy (xavorang), siniy (ko'k) va fioletoviy (binafsharang).

283-savol: U boshqalarga bu xaqda ma'lumot beradi, uning o'zida esa bu ko'rsatkich o'rtacha 10 ga, eng ko'pi bilan 40 ga teng. U nima va u boshqalarga nima xaqida ma'lumot beradi.

Javob: Kakku qushi necha marta sayraganiga qarab insonlar qancha umr ko'rishlarini bashorat qilish odati bor, kakkuning o'zi esa 10 yil, eng ko'pi bilan 40 yil yashashi mumkin.

284-savol: Gyote shunday yozgan edi: «U hazillarni tan olmaydi, u doimo haqqoniy, doimo jiddiy, doimo qattiqqo'l, u doim haq, xatolar va yanglishishlar insonlar tomonidan kelib chiqadi». U nimaga shunday ta'rif bergan?

Javob: Tabiat.

285-savol: Qadimgi yunonlar bu yerga kelganlarida bu yerda ozuqabop o't, o'simlik va chorva mollari ko'pligini ko'rib hayratga tushganlar. Shuning uchun ular o'sha yerni aynan shunday atagan ekanlar. Qanday ataganlar?

Javob: Buzoqlar mamlakati-ya'ni Italiya.

286-savol: Etrusklar ularni muqaddas hayvon deb bilganlar. Ulardan faqat harbiy maqsadlardagina foydalanganlar. U qaysi hayvon?

Javob: Ot.

287-savol: Rimliklar gallarni masharalab, ularni bir nom bilan ataganlar, chunki gallar dubulg'alariga o'sha narsani qadab yurar edilar. Ular nima qadab yurishgan?

Javob: Xo'roz patini.

Izoh: Shuning uchun yunonlar gallarni «xo'roz» deb masxaralashar edi.

288-savol: Miloddan avvalgi 279 yilda Epir podshosi Pirr qo'shinlari Adriatika dengizi sohilidagi Auskul shahri yonida bo'lgan jangda Rim qo'shinlarini tor-mor etgan. Shunda Pirr: «Agar biz rimliklar ustidan yana bir marta shunday g'alaba qilsak,...» - degan. Uning so'zlarini davom ettiring.

Javob: «...tamomila halok bo'lamiz».

Izoh: Bu jangda Pirr o'zining juda ko'p jangchilaridan ayrilgan.

289-savol: Xitoyliklar undan juda ko'p zarar ko'rishgan. Shuning uchun ular uni «Tentak», «Xitoyning sho'ri», «Ming xil kulfat keltiruvchi» deb atashgan. U hozir qanday ataladi?

Javob: Xuanxe daryosi.

290-savol: Qadimgi Xitoyda istilochilik urushlari va b. harakatlari uchun juda katta mablag' talab etilgan Xan podsholigi bo'lgan. Aynan o'sha hokimiyat davrida qashshoq oilalarda yosh bolalar, keksa ota, ona, buvi va buvalarni o'ldirish hollari ko'payib ketgan. Bunga nima sabab bo'lgan?

Javob: Saltanatda soliq haddan tashqari oshirilib, jon boshi solig'i yosh go'daklar va keksalardan ham olinar edi. Kamroq soliq to'lash maqsadida shunday qilishga majbur bo'lishgan.

291-savol: O'tmishda ko'chmanchilar ro'zg'orida u buyum eng qimmat, hatto muqaddas hisoblanardi. Birov agar ko'chmanchining o'zini haqorat qilsa, u buni ko'pincha esdan chiqarib yuborar, ammo o'sha narsasini haqorat qilsa, bunga asli chiday olmas, urishib-janjallashar, hatto «to'p»ga solib to'qqiz ayb jarima soldirtirar edi. Ko'chmanchilar ro'zg'orida bunchalik e'zozlangan buyum nima?

Javob: Qozon.

292-savol: Oskar Uayld shunday yozgan: «Jamiyatning pul haqida boylardan ham ko'proq o'ylaydigan faqat bitta sinfi bor, bu ulardair». Kimlar?

Javob: Kambag‘allar.

293-savol: Hind faylasuflari Charvak degan ta’limot yaratganlar. Bu ta’limotga ko‘ra, ilm va bilimning bosh manbai - aynan udir. U nima?

Javob: Tajriba.

294-savol: Xitoy tilida «samoviy tog‘lar» deb ayting.

Javob: Tyan-shan.

295-savol: «Alpomish» dostonida Alpomishning yoyi o‘n to‘rt botmon birichdan deb ta’rif beriladi. Botmon og‘irlik o‘lchov birligi ekanligini barchamiz yaxshi bilamiz. Birich nima?

Javob: Bronza.

296-savol: XIX asrdan arifmometrlar keng qo‘llanila boshlandi. Hatto mahsus kasb mavjud bo‘lgan - ya’ni ma’lum tartibdagi instruksiyalarni arifmometr yordamida tez va aniq bajaruvchi odam bo‘lgan. Bu odamni qanday atashgan?

Javob: Kalkulyator.

297-savol: Antuan de Sent Ekzyuperi unga shunday ta’rif bergan: «Sening na ta’ming, na ranging, na xiding bor, seni ta’riflash mumkin emas, sendan sening nima ekanligingni bilmagan holda lazzatlashadi. Seni hayot uchun zarur deb bo‘lmaydi - sen hayotning o‘zisan. Sen biz o‘z tuyg‘ularimiz bilan tushuntirib bo‘lmaydigan quvonch bilan bizni to‘ldirasan. Sen dunyodagi eng katta boylikсан...». U nimaga ta’rif bergan?

Javob: Suvga.

298-savol: Bu kitob 40 dan ortiq mualliflar tomonidan yozilgan va bu mualliflar turli jamiyat qatlamlaridan bo‘lishgan: davlat arbobi, baliqchi, cho‘pon, harbiy boshliq, vinochi, shifokor, shoh, soliqlar yig‘uvchi, shoir, faylasuf va b. Bu qaysi kitob?

Javob: Bibliya.

299-savol: 1890 yilda Xosyu tomonidan chizilgan gravyurada bog‘ o‘rindig‘ida bir inson o‘tiribdi. U boshiga shlyapa kiygan, egnida qora smoking va bo‘ynida kapalaknusxa bo‘yinbog‘i bor. Bu insonning tepasida «U - yangi fanning genial va kamtarin asoschisi» degan yozuv turibdi. Agar siz ushbu gravyurada kim tasvirlanganini topgan bo‘lsangiz, u o‘tirgan o‘rindiqning oldida qanday daraxt o‘sib turganini ayting.

Javob: Olma daraxti (Gravyurada Isaak Nyuton tasvirlangan).

300-savol: Hind matematigi, VI asrda yashagan Aryabxataning quyidagicha she’ri bor:
Yuzga to‘rtini qo‘shib sakkizga ko‘paytir,
Keyin yana oltmish ikki mingni qo‘sh.

Natijani yigirma mingga bo'lsang,
Senga bir qiymat ma'lum bo'ladi.

Yuqoridagi to'rtlikda qanday qiymat nazarda tutilgan?

Javob: Aylana uzunligining diametrga nisbati ya'ni π .

2005 yil.

301-savol: Ushbu tabiat hodisasi haqida hamma narsa ma'lum va hech narsa ma'lum emas. Optiklar tasvirlar va formulalar bilan bu hodisa haqida gapirib berishlari mumkin. Ularni o'rganish deyarli mumkin emas, chunki ular buyurtma bo'yicha paydo bo'lmaydilar. Agar siz so'z qaysi tabiat hodisasi haqida ketayotganligini topgan bo'lsangiz, shu tabiat hodisasi nomi bilan ataluvchi asar yozgan o'zbek yozuvchisini ayting.

Javob: Abdulla Qahhor.

Izoh: Gap bu yerda saroblar haqida ketmoqda.

302-savol: 1853 yil tashkil etilgan ushbu kompaniyaning eng oxirgi ishlab chiqargan mahsulotida balandlikni o'lchash qurilmasi, kompas, barometr, termometr kabi qo'shimcha qurilmalari bor. Uning asosiy qurilmasining vazifasi nima?

Javob: Vaqtni ko'rsatish.

Izoh: Gap TISSOT kompaniyasi soatlari haqida ketmoqda.

303-savol: Britaniyalik haykaltarosh Entoni Gormli cho'yandan inson figuralarini yasash bilan shug'ullanadi. Uning eng yaxshi haykallari Britaniyaning ko'pgina shaharlarini bezab turibdi. U o'zining cho'yan figuralarini ko'pincha bir insongdan andoza olib yasaydi. Siz menga bu insonning kim ekanligini emas, balki uning kasbi nima ekanligini ayting.

Javob: Haykaltarosh.

Izoh: U cho'yan figuralarini o'z gavdasidan andoza olib o'ziga o'hshatib yasaydi.

304-savol: Tailandning Sa Kaev provintsiyasida yashovchi pakana buqaning sohibi o'z buqasidan avlod olish niyatida huddi o'sha zotdagi sigirni qidirishga tushdi. Qo'shni xo'jaliklardan birida u o'z buqasining juftini topadi va uni sotib olmoqchi bo'ladi, lekin sigir egasi bunga rozi bo'lmaydi. Shunda pakana buqa egasi bu vaziyatni o'z foydasiga hal qilish yo'lini topadi. Qanday qilib u o'z maqsadiga erishadi?

Javob: U o'z buqasiga o'sha sigirni to'y qilib olib beradi va «kelin»ni o'zi bilan olib ketadi.

305-savol: Bartolomyu Gosnold 1606-1607 yil «Godspid», otalar-asoschilar 1620 yil «Mayflauer», Layf Erikson 1000 yil «Viking». Sizlar menga ushbu ro'yxatni to'ldiradigan va eng mashhurini huddi shu tartibda ayting.

Javob: Xristofor Kolumb 1492 yil «Santa Mariya».

Izoh: Yuqoridagi ro'yxatda Yevropadan Amerikaga turli yillarda uyushtirilgan ekspiditsiyalar keltirilgan.

306-savol: Unga anchadan buyon haykal o'rnatish niyatida edilar,lekin buning hech uddasidan chiqa olmayotgandilar.Lekin,1999 yil Yekaterinburgda nihoyat unga dunyodagi birinchi yodgorlik o'rnatildi.Bronzadan quyilgan unchalik baland bo'lmagan postamentda faqatgina bir juft yalang oyoqlarning izi turibdi.Bu haykal kimga o'rnatilgan?

Javob: Gerbert Uellsning «Ko'rinmas odam»iga.

307-savol: Qadimgi hind qo'shiqlaridan birida «ko'kdan ham ko'kroq faqat u bo'lishi mumkin» deyilgan.U nima?

Javob: Indigo bo'yog'i.

308-savol: Kataloniyaning O'rtaer dengizi qirg'oqlarida barber qaroqchilari tomonidan ispanlarning «El Sol»- «Quyosh» deb nomlangan kemasi bosib olinadi.U Neapoldan chiqib, Barselona tomon yo'l olgan edi.Kemadagi bir necha yo'lovchilar orasida besh yillik armiya xizmatidan qaytayotgan 28 yoshli askar bor edi.U Jazoir podshosiga qullikka sotib yuboriladi. To'rt marotaba qochishga uringach,nihoyat 1580 yilda 500 oltin eskudo evaziga qo'yib yuboriladi.U inson kim edi?

Javob: Migel de Servantes Saavedra.

309-savol: Dastlab Napoleon I o'z jasoratini abadiylashtirish uchun Triumfal arkani qurdirmoqchi emas edi.U o'sha yerda bir hayvonning haykalini o'rnatmoqchi bo'lgan.Chunki bu hayvonlarni ko'rganida u hayratga tushar edi. Lekin ushbu maqsad amalga oshmadi,baribir Triumfal arka qurildi.U qaysi hayvonning haykalini o'rnatmoqchi edi?

Javob: Fil.

310-savol: Mashhur «Misr katta yodgorligi» da fir'avn Ramses II ning podshohligi haqida yozilgan va uning yoshi 3300 yil.Shundan 3130 yilini u o'ziga qadrdon bo'lgan Luqsordagi Nil qirg'oqlarida turdi.Qolgan 170 yilini esa aynan mana shu o'ziga begona bo'lgan daryo bo'yida o'tkazmoqda.Bu qaysi daryo?

Javob: Sena daryosi.

Izoh: Ushbu yodgorlik 170 yil oldin Misr podshohi tomonidan Napoleonga sovg'a sifatida yuborilgan.Hozirda u Parijni bezab turibdi.

311-savol: Frantsuz adabiyotining klassigi Onore de Balzak o'zining unga bag'ishlangan qo'llanmasida «Erkak kishi o'zining o'sha narsasiga qarab hurmat topadi-bu uning o'zi,buning yordamida u o'zining asl ko'rinishini bekitadi,bu narsada uning aqli namoyon bo'ladi» degan. Agar «Zakovat» bilimdonlari bir yilcha avval uni boshqa predmet bilan almashtirishgan bo'lsa,u nima?

Javob: Galstuk.

312-savol: Ushbu mahsulot reklamalaridan birida unga shunday ta'rif berilgan: «Unga musiqiy asarlar bag'ishlangan,uni to'lov vositasi sifatida ishlatishgan,uning yordamida sevgi izhor qilishgan,u turli dindagi insonlarni yaqinlashtirishga yordam bergan,uni ko'pgina illatlarga qarshi dori sifatida yozib berishgan».Bu qaysi mahsulot?

Javob: Kofe.

313-savol: Afsonaga ko'ra,shoh daryodan suv olgani keladi va kutilmaganda suvda go'zal shaharning aksini ko'rib qoladi,u shunchalik hayratga tushadiki,qo'lidagi suv olish uchun olib kelgan idishini suvga tushirib yuboradi.U bir yaltirab, suv tubiga cho'kib ketadi va izziz yo'qoladi.Shu-shu bu shahar aynan o'shanday atala boshlandi.Qanday?

Javob: Qozon.

314-savol: Bu kasb egalarida fazoda orientatsiya olish qobiliyati kuchli rivojlangan bo'ladi.Bu kasb vakillari Londonda «Markoni» firmasida ishlashadi va bir vaqtlar Londonning mafiyalari bo'lganlar.Bir mashhur filmda esa bosh qahramon hayotidagi eng muhim kunda shu ishni qilishga majbur bo'ladi.Siz menga film nomini yoki mana shu film bosh qahramonining film oxirida aytgan so'zini ayting.

Javob: «To'ylar muborak».

Izoh: Gap bu yerda taksi haydovchilari haqida ketmoqda.

315-savol: Malayziyada «Sen qaerga ketayapsan?» deyishadi,bu savolga «Aylangani» deb javob berishadi.Yahudiy «Sizga tinchlik» desa,fors «Quvnoq bo'l»deydi,Grenlandiyaliklar esa «Yaxshi ob-havo» deyishadi.Biz bunday holatda nima deymiz?

Javob: Assalomu Alaykum-Vaalaykum Assalom.

316-savol: Jahon adabiyotining eng dramatik tarixi Kiprning o'z go'zalligi bo'yicha Venetsiyadan qolishmaydigan Famagusta shahrida sodir bo'lgan.Siz menga bu voqeaning nomini emas,balki uning bosh qahramonlaridan birining o'limiga sababchi bo'lgan ashyoni ayting.

Javob: Ro'molcha.

Izoh: Gap bu yerda U.Shekspirning «Otello» asari voqealari haqida ketmoqda.

317-savol: Kalamushlar bilasiz,har doim insonga zarar keltirib kelgan.Lekin yaqinda Tanzaniyada ushbu hayvonlarga yangi bir vazifani o'rgatishdi va ular o'z ishlarini juda yaxshi bajara olishlari mumkinligini isbotlashmoqda va inson kasbdoshlaridan farqli ularoq,hattoki bir marta ham xato qilishmayapti.Ularni qaysi kasbga o'rgatishgan?

Javob: Sapyor.

Izoh: Kalamushlarda hid bilish qobiliyati juda kuchli rivojlangan va ular minalarni bexato topib berishmoqda.Savolda «Sapyor bir marta xato qiladi» degan iboraga ishora qilingan.

318-savol: Blitz savol.

Mavzu: Kofe.

1. Birinchi qahvaxona aynan mana shu davlatda 1554 yili ochilgan. Qaysi davlatda?
2. Eruvchan kofeni ishlab chiqarishning birinchi texnologiyasi XX asrning 30-yillarida aynan mana shu kompaniya mutahassislari tomonidan ishlab chiqilgan.
3. Petr I aynan mana shu davlatda bo'lganida qahvani yoqtirib qoladi va vataniga qaytgach, u Assambleyalarning ajralmas atributiga aylanadi. U qaysi davlatda bo'lganida qahvani yoqtirib qoladi?

Javob: 1. Turkiya.

2. Nestle.

3. Gollandiya.

319-savol: Bekon fikricha, u yaxshi nonushta, lekin yomon kechki ovqatdir, Dantega ko'ra esa, jahannam darvozalariga kiraverishda u yerga kiruvchi barcha uni qoldirib kirishi kerak. U nima bo'lishi mumkin?

Javob: Umid.

320-savol: Injilda Iso Masih davridagi pullar keltirilgan. Unga ko'ra, 2 lepton-1 kvadrant, 4 kvadrant-1 assariy, 16 assariy-1 dinor, 4 dinor-1 statir, 100 dinor-1 mina, 6000 dinor-1 o'sha pul birligiga teng. Hozirda esa siz uni hech qancha pulga sotib ololmaysiz, u faqat o'zingizda bo'lishi kerak. Uni ayting.

Javob: Talant.

321-savol: Uning otasi Imron «Bani Isroil» qavmi ichida eng obro'li kishilardan edi. Uning xotini Xanna befarzand edi. Xanna Allohga iltijo qilib farzand ato etishini so'rar edi, Alloh unga qiz farzand ato etdi. Siz menga bu qizning kim ekanligini emas, balki uning o'g'lini ismini ayting.

Javob: Iso Alayhisalom.

322-savol: Blitz savol.

Mavzu: Islom.

1. Islomda ular 4 ta: Azroil, Jabroil, Mikoil va u. Uni ayting.
2. Toshkent Islom Universiteti aynan mana shu inson nomida. U kim?
3. Qur'oni Karimdagi eng uzun sura-Baqara surasi bo'lib, 286 oyatdan iborat. Siz menga 3 oyatdan iborat bo'lgan eng qisqa suraning nomini ayting.

Javob: 1. Isrofil.

2. Imom Ismoil al Buxoriy.

3. Kavsar.

323-savol: Hattoki katta tajribaga ega bo'lgan usta-duradgorlar ham uni o'zlariga bo'ysundira

olmaydilar.U duradgorlarning ashaddiy dushmani hisoblanadi,ularning ishiga halaqit beradi. Bu bo‘ysunmasni bir daqiqadan keyin aytasiz.

Javob: Yog‘ochning ko‘zi.

324-savol: Polyak shoiri va aforisti Stanislav Yeji Letsning shunday aforizmi bor: «Bu progressiv-diniy odam edi;u odamning maymundan kelib chiqqaniga rozi bo‘lar edi, lekin faqat o‘sha maymundan kelib chiqqaniga rozi bo‘lar edi». Qaysi maymundan?

Javob: Nuh payg‘ambar kemasidagi.

Izoh: Baribir uni xudo yaratgan demoqchi.

325-savol: Etnograf G.P.Snesarev Xorazm vohasining o‘tmishi haqida yozarkan, bu hususda shunday deydi: «Hamma informatorlar bu kasb egalarini «gunohkor» ekanliklarini tushuntiradilar. Qachonlardir ularni el-yurtdan ajratib,yakkalab qo‘yish,ular o‘lganda esa umumiy mozordan chekka joyga qo‘yish odati mavjud bo‘lganligini ma‘lum qiluvchi dalillar ko‘p...».Bunchalik xalq nafratiga duchor bo‘lgan kasb vaillarini ayting.

Javob: Zargarlar.

Izoh: Ular berilgan buyurtmadan urib qolishadi deb hisoblab ularni o‘g‘rilar bilan tenglashtirishgan.

2006 yil.

326-savol: Ular ja‘mi 4 ta. Shundan birinchisida 20 ta bo‘lsa ham u bosiq, ikkinchisida bor yo‘g‘i 9 ta, lekin u osmonni boshiga ko‘taradi, uchinchisida bor-yo‘g‘i 5 ta va u sharqona kamtarinlikni namoyon qiladi, to‘rtinchisida 10 ta va u eng yuqorida turadi. Siz menga ushbu to‘rtlikni emas, ularda nima shunchadan ekanligini ayting.

Javob: Dengizlar.

Izoh: Gap okeanlar haqida ketmoqda: Tinch, Atlantika, Hind va Shimoliy muz okeanlari.

327-savol: 1830 yil 18 sentyabrda AQSh da bir poyga bo‘lib o‘tdi. Unda bir yangi kashfiyot sinab ko‘rilgan edi. Lekin tabiat har doimgidek insondan ustun keldi. Lekin bunga qaramay oradan 3 oy o‘tib bu kashfiyotdan insonlar foydalana boshladilar. Siz menga mag‘lubiyatga uchragan kashfiyotni emas, balki undan to‘xtashni iltimos qilgan film qahramonini ayting.

Javob: Balbes.

Izoh: So‘z paravoz haqida ketmoqda, Yu.Nikulin qahramonini qo‘shig‘ini eslang: Shoshma paravoz....

328-savol: Islomda bu narsa kishilarningn qaysi ijtimoiy guruhga tegishliligiga qarab turlicha bo‘ladi. Shialik ruxoniylarida u qora, sayyidlar va hojilarda yashil bo‘lgan. Siz menga uning nima ekanligini emas, balki ba‘zi holatlarda u nimaning o‘rnini bosishi mumkinligini ayting.

Javob: Kafanlik.

Izoh: So‘z salla haqida ketmoqda.

329-savol: 1455-1485 yillarda o‘zaro kurash olib borgan ikki dinastiya bo‘lgan. Buni qarangi, ularning har ikkalasining belgisi haqida oradan bir necha asr o‘tib qo‘shiqlar kuylandi. Qo‘shiq kuylaganlardan biri rus, ikkinchisi o‘zbek ayoli hisoblanadi. Agar rus ayoli Alla Pugachyova bo‘lsa, o‘zbek ayoli kim?

Javob: Umida Mirxamidova.

Izoh: Gap Angliyada bo‘lib o‘tgan “Oq atirgul” va “Pushti atirgul” ramzlariga ega bo‘lgan dinastiyalar o‘rtasidagi urush haqida ketmoqda. Alla Pugachyova pushti atirgul haqida kuylagan bo‘lsa, Umida Mirxamidova oq atirgullar haqida kuylagan.

330-savol: Sobiq sovet ittifoqidan fazoga “Orbita” stantsiyasi to‘riga rangli va oq qora TV dasturlarni uzu-kun translyatsiya qilish uchun sun‘iy yo‘ldosh uchirildi. Unga nom berishda esa oq-qora TV larni unutib, rangli TV larga hos bo‘lgan nomni berishdi. Unga qanday nom berilgan bo‘lishi mumkin?

Javob: “Raduga”.

331-savol: Mark Tven aytgan: “Agar sizning yoshingiz 48 dan kichik bo‘lsa va siz birinchisi bo‘lsangiz, demak siz juda ko‘p bilasiz. Agar sizning yoshingiz 48 dan katta bo‘lsa va ikkinchisi bo‘lsangiz demak, siz juda kam bilasiz”. Birinchisi va ikkinchisini tartib bilan ayting.

Javob: Pessimist va optimist.

332-savol: Madam de Steyl aytgan: “Men erkak emasligimdan baxtiyorman, chunki agar erkak bo‘lganimda o‘sha ishni qilishimga to‘g‘ri kelardi” degan. Nima qilishga to‘g‘ri kelardi?

Javob: Ayol kishiga uylanishga.

333-savol: Bu ikkala narsa ham sarflanadigan narsa. Birinchisi bizning hohishimizga qaramay sarflanaveradi, ikkinchisining sarflanishi esa, bizga bog‘liq. Ikkovini ham foydali yoki zararli tomonga sarflash insonning o‘zining ishi. Endi siz menga o‘zbeklar iborasiga ko‘ra birinchi va ikkinchining oxirgisini nimaga sarflashni tavsiya qilinishini ayting.

Javob: Palov yeyishga.

Izoh: Gap kun va pul haqida ketmoqda: “Kuningdan bir kuning qolsa ham osh ye, pulingdan bir so‘ming qolgan bo‘lsa ham osh ye”.

334-savol: Xalqimizda “Oyga qarab adashsang otingni oltin qoziqqa bog‘la” degan ibora bor. Xo‘sh o‘sha “ot bog‘lanadigan” “oltin qoziq” nima?

Javob: Qutb yulduzi.

335-savol: Shaxmatda uzoqqa uruvchi (dalnoboykiy) figuraning raqib figurasi yoki piyodasi,

shuningdek, qandaydir maydonga raqibning boshqa figuralari orqali o‘tishi aynan bir insonning nomi bilan ataladi. U inson aslida shaxmatchi emas, lekin uning nomi nafaqat shaxmatchilarga balki tibbiyot xodimlariga ham juda yaxshi tanish. U kim?

Javob: Rentgen.

336-savol: Vorfolomey, kichik Iakov, Andrey, Matvey, Faddey, Simon, Foma, Iakov Zavedeev, Filipp, Petr, Ioann. O‘sha sirli kechaning yana ikkita qatnashchisini ayting.

Javob: Iso va Iuda.

Izoh: Bu yerda gap Leonardo da Vinchining “Tilsimli kecha” suratidagi Iso va 13 ta havoriylar haqida ketmoqda.

337-savol: 100 metrlik metall sterjen 1 daraja isitilganda 1 mm ga uzayadi. Toshkentda harorat yil davomida o‘zgarib turadi. Shu sababli metall haroratining 15 gradusdan 65 gradusgacha qizishini hisobga olsak, uning balandligi taxminan 15 sm ga o‘zgarib turadi. Uni ayting.

Javob: Toshkent teleminorasi.

338-savol: Odatdagi asalarilar oilasi bir mavsumda 50-60 kilogrammgacha asal va 1-1,5kilogramm uni berishi mumkin. U nima?

Javob: Mum.

339-savol: O‘zbekistonda davlat muhofazasi ostiga ularning 319 tasi olingan, ulardan ko‘pchiligi Farg‘ona vodiysida, Samarqand, Surxondaryo va Toshkent viloyatlaridadir. Ulardan ayniqsa ehtiromga sazovori Vodilda bo‘lib, uning ko‘rsatkichlari 800, 35, 8 ga teng. U nima?

Javob: Chinor (800 yosh, bo‘yi 35 m, qalinligi 8 m).

340-savol: Bu narsaga nisbatan non 3 marotaba, sigir suti 10 marotaba kamroq to‘yimlidir. Kaloriyaviyligi bo‘yicha unga hatto cho‘chqa yog‘i ham bas kelolmaydi. U nima?

Javob: Yong‘oq.

341-savol: Blits savol.

Mavzu: O‘zbek topishmoqlari.

1. Onasidan kiyim-boshim

Bolasidan yog‘li oshim.

2. Tim qora kichkina xol

To‘xtatar yo‘lda darhol

3. Yettisi bir yerga yig‘ilsa

Beshisi bir yerga yig‘iladi.

Javob: 1. Paxta. 2. Nuqta. 3. Palov (palovning yettita asosiy masallig‘i va uni “o‘zbekchasiga” yeydigan beshta barmoq).

342-savol: Shaxmat bo'yicha 9-jahon chempioni Tigran Petrosyanning shunday gapi bor: "Shaxmat –bu shakli bo'yicha o'yin, mazmuni bo'yicha-san'at, o'yinni o'rganish qiyinligi bo'yicha esa - udir". U nima?

Javob: Fan.

343-savol: Bu qirollikning Agadir, Safi, Tetuan, Tanjer kabi portlari bor. Uning poytahti ham port port shahar hisoblanadi. Lekin u mamlakatdagi eng yirik port emas. Siz menga ushbu mamlakatning eng yirik portini ayting.

Javob: Kasablanka (Gap Marokash davlati haqida ketmoqda).

345-savol: Injilda shunday yozilgan: "U ishni qilmanglar - na osmon haqqi, chunki u Xudoning taxtidir, na yer haqqi, chunki u Xudoning poyandozidir, na Quddus haqqi, chunki u Buyuk Podshohning shahridir. Boshing haqqi ham u ishni qilma, chunki sen bironta sochingni oq yoki qora qilomaysan". Injilda nima qilmaslik to'g'risida nasihat qilingan?

Javob: Qasam ichish.

346-savol: Blitz savol.

Mavzu: Namoz.

- 1.Fors tilida namoz, arab tilida-chi?
- 2.O'zbekistonda namoz asosan shu mazhabga muvofiq o'qiladi.
- 3.Joynamozning bosh tomoniga aynan uning shakli tikilgan bo'ladi.

Javob: 1.Salot.

2.Hanafiylik.

3.Burchak (mehrob).

347-savol: Bir zolim podsho xalqqa: "Mening bo'yimga loyiq ko'rpa tikib kelinglar" deb buyuribdi. Ertasiga podsho ko'rpalarni birma-bir ustiga yopib ko'ra boshlabdi. Ko'rpa agar uzunroq bo'lsa, uni ataylab bosh tomonga tortib, oyoqlarini cho'zib: "Ie bu kalta-ku!" deb, agar kaltaroq bo'lsa jo'rtaga oyoqlarini yig'ib olib: "Ie bu uzun-ku" deb baqiraveribdi. Shunda navbat bir cholga kelibdi. Podsho u keltirgan ko'rpani ustiga yopibdi-da, bosh tomonga tortib oyoqlarini tizzasigacha ochib: "Ie bu kalta-ku!" deb baqirgan ekan, sabr kosasi to'lib turgan chol qo'lidagi hassasi bilan podshohning oyoqlariga bir tushirib, bir gap aytibdi. U podshoga nima degan?

Javob: "Ko'rpangga qarab oyoq uzat-da!".

348-savol: Bu nisbat finvalda 0,0045%, Hind filida 0,27%, itda 0,22%, asalarida 0,5%, uy sichqonida 3-3,2%, gorillada 0,2%, shimpanzeda 0,8%, odamda esa 2-2,5% ni tashkil etadi. Aniq qilib ayting, nimaning nimaga nisbati?

Javob: Bosh miya massasining tana massasiga nisbati.

349-savol: Ularning rangiga ko'ra qora, kulrang, durrang, kumushrang, tillarang, bronza rang,

qahrabo rang, platina rang, po‘lat rang, jigarrang, brilliantsimon rang, oq va boshqa turlari bor. U nima?

Javob: Qorako‘l terisi.

350-savol: Vladimir Voroshilovning sevimli iborasi bor: “Birinchisini ko‘rdingmi-uni qo‘y. Ikkinchini ko‘rdingmi-uni o‘tqaz. Agar hech nima ko‘rmayotgan bo‘lsang, qog‘oz va matoni vayron qilma”. Siz menga birinchi va ikkinchini o‘zaro birlashtirgan va bundan bir yangilikni yaratgan insonni ayting.

Javob: Morze (Gap bu yerda nuqta va chiziq, ya’ni tire haqida ketmoqda).

2007 yil.

351-savol: Gruziyaning Alazan vodiysidagi Kaxetiya tumanida bir shahar bor. Bu shaharning nomini eshitgan kishining hayoliga Osiyoning boshqa davlatidagi shahar keladi. Lekin har ikkalasida ham gruzinlar yashaydi. Endi siz menga bu ikkala shaharda yashovchi ikki inson o‘zaro suhbatlashayotib, ehtirolarga barilib ketib nima qilishganini ayting.

Javob: Qo‘shiq kuylashgan.

352-savol: U 1966 yilda Saratovda tug‘iladi, erta bolaligida ota-onasidan mahrum bo‘ladi va otasining ukalaridan biri tomonidan asrab olinadi. Gubkin nomidagi Moskva neft va gaz institutida tahsil oladi. Endi siz menga u 2003 yilda nimani harid qilganini ayting.

Javob: Angliyaning “Chelsi” futbol klubi.

353-savol: Bu Rossiya flotining birinchi rangiga tegishli a’zosi rus-yapon, birinchi jahon, fuqarolar, Ulug‘ Vatan urushlarida qatnashgan. Uning Diana va Pallada ismli ikkita singlisi ham bo‘lgan. Endi siz menga hozir u qaerda yashashini ayting.

Javob: Sankt-Peterburgda, Kichik Nevaning chap qirg‘og‘ida.

354-savol: Bu mamlakat gerbida bir nechta hayvonlarni ko‘rish mumkin: sut emizuvchilar, qushlar. Lekin ularning ko‘pchiligi bu davlatga aloqador emas. Faqat asosiy fondagi bir su emizuvchi va qushni avtoxton desa bo‘ladi. Siz menga bu davlat rahbari kim ekanligini ayting.

Javob: Buyuk Britaniya qirolichasi.

Izoh: Bu yerda gap Avstraliya davlati gerbi haqida bormoqda.

355-savol: Unga nom berishda ikkita so‘zdan foydalanishgan: birinchi so‘zning birinchi yarmi va ikkinchi so‘zning ikkinchi yarmi. Yana shunisi qiziqki, unga nom berishda birinchi so‘zning “o‘zi” olinib, ikkinchi so‘zdan “umuman” olinmagan. U nima?

Javob: Avtobus (avto(mobil)va (omni)bus so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan).

356-savol: Uning shiori: “Fan-Sport-Do‘stlik-Tinchlik” Uning o‘tkazilishini FISU nazorat qiladi. U nafaqat halqaro miqyosda o‘tkaziladi, balki mamlakatlar miqiyosida mahalliy musobaqalar ham o‘tkazilib turiladi. Bu yil ham shunday mahalliy musobaqalardan biri Osiyodagi poytahtlardan birida bo‘lib o‘tdi. Siz menga shu poytaht qanday gulik bilan bog‘liqligini ayting.
Javob: Non.

357-savol: Bu fanning nomini eshitgan kishi bu fan shimolda joylashgan davlatlardan birining hukmdorlarining ayniqsa, ularning eng yorqin namoyondasi haqidagi fan deb o‘ylashi mumkin. Lekin bu fan tog‘ jinslarini o‘rganuvchi fan hisoblanadi. Siz menga bu fanning nomini emas, o‘sha yuqorida aytilgan hukmdorlarning eng yorqin namoyondasi Eski dunyoga nisbatan nima qilganini ayting.
Javob: Deraza ochgan.

358-savol: Uning gumbazining balandligi 30 m, diametri 24x2 m. Tilla bilan bezatilgan moviy fon Tillakori madrasasi an‘analarini davom ettirgan. Uni nafaqat u joylashgan shahar aholisi va mehmonlari ko‘rishgan, balki mamalkatning chekka-chekka qishloqlarida yashovchilar ham ko‘rishgan. Agar televidenie yoki matbuotda bo‘lmasa qaerda ko‘rishgan?
Javob: 1000 so‘mlik kupyuraning orqa tomonida.
Izoh: Bu yerda gap Temuriylar tarixi davlat muzeyi haqida ketmoqda.

359-savol: Kaykovusning “Qobusnoma” asarida shunday yozilgan: “Ey farzand, bilgilki, donishmandlar uni kichik o‘lim deganlar. Uni ko‘p bo‘lishi yomon odatdirki, badanni sust, tabiatni vayron qiladi, yuzni kasalga o‘xshatib qo‘yadi”. U nima?
Javob: Uyqu.

360-savol: Bu ishning haqiqiy ustalari bizda Olim va Murod Toshkenboevlar bo‘lishgan. Ularning ishi juda qiyin, havfli bo‘lgan va katta mahoratni talab qilgan. Ular qilgan ishni bizga ham qilishni bundan bir necha yil ilgari bir guruh yigitlar maslahat berishgandi. Yaqinda esa bir qiz bizga bu ishni qilishni maslahat bera boshladi. U qizning ismi nima?
Javob: Rayhona.
Izoh: Toshkenboyevlar mashhur dorbozlar bo‘lishgan. Dor o‘ynashni bundan bir necha yil avval “Yalla” guruhi yigitlari maslahat berishgandi, yaqinda esa qo‘shiqchi Rayhona ham bizga shu maslahatni bera boshladi.

361-savol: Tasavvur qiling, mashhur “Kavkaz asirasi” filmining bosh qahramoni Shurik va Xo‘ja Nasriddin yo‘lda uchrashib qolishdi va uzundon uzoq suhbatga tushib ketishdi, tasavvur qilgan bo‘lsangiz huddi shunday sharoit munosabati bilan paydo bo‘lgan mashhur iborani qisqa qilib ayting.
Javob: “Ko‘p gap eshakka yuk”.
Izoh: “Kavkaz asirasi” filmida Shurik doimo eshakda yuradi, Xo‘ja Nasriddinning hamrohi ham

eshak bo‘lgan. Endi tasavvur qiling, eshak mingan ikki kishi yo‘lda uchrashib qolishsa, eshak ustida o‘tirib suhbatlashaveradi, hamma og‘irlik esa eshakka tushadi. Shuning uchun sizdan ham qisqagina qilib javob berish so‘ralgandi J .

362-savol: Barchamiz mashhur “Ivan Vasilevich o‘z kasbini o‘zgartiradi” filmida Shurikning vaqt mashinasi yordamida bizning zamonamizga rus shohi Ivan Grozniy tushib qolganini, ya’ni tirik shohni ko‘rganmiz. Bu albatta bir film. Lekin O‘zbekistonning bir shahrida biz hozirgi kungacha “tirik shoh” ni ko‘rishimiz mumkin. Qaysi shaharda?

Javob: Samarqandda.

Izoh: “Shohi Zinda” so‘zi fors tilidan tarjima qilinganida aynan “tirik shoh” degan ma’noni anglatadi.

363-savol: Jahonda kemalarning turlari juda ko‘p. Lekin bu "kema"ning bor yo‘g‘i ikki hil turi bo‘lib, birinchisi dromedar, ikkinchisi esa baktrian deb ataladi. Xo‘sh, bu kemalarning bir-biridan farqi nimda?

Javob: O‘rkachining sonida. Dromedar-bir o‘rkachli, baktrian ikki o‘rkachli tuya. Tuya esa sahro kemasi hisoblanadi.

364-savol: Turli-tuman niqoblar odamlarning yuzini berkitib, ularni atrofdagilar tanimasligi uchun xizmat qilishi hammangizga ma’lum. Lekin u insonni juda mashhur qilib yuborishi ham mumkin ekan. Jumladan 1994 yilda bir inson niqob tufayli yanada mashhur bo‘lib ketadi. U inson kim?

Javob: Jim Kerri.

365-savol: Bu dengizda 300 dan ortiq **orol** bor. Bu orollarning ichida eng yiriklaridan biriga bormaganingiz ma’qul. Chunki u orolga borsangiz qaytishingiz amri mahol. Xo‘sh bunday **orol** qaysi dengizda joylashgan?

Javob: Orol dengizida. "Borsakelmas" oroli.

366-savol: Birinchisi va haqiqiysi – Latsio viloyatining ma’muriy markazi, ikkinchisi – hozirgi kunda Istambul viloyatining ma’muriy markazi. Uchinchi qaysi viloyatning ma’muriy markazi hisoblanadi?

Javob: Moskva.

Izoh: Uchinchi Rim - Moskva shu nomdagi viloyatning ma’muriy markazi.

367-savol: Bu bahodirning Semetey ismli o‘g‘li va Seytek ismli nabirasi bo‘lgan. Bu uchchalovining o‘z vatanlarini himoya qilishdagi jasoratlari haqidagi ijod mahsuli aynan o‘sha bahodirning nomi bilan ataladi. O‘sha bahodirning ismini ayting.

Javob: Manas.

368-savol: Bu sohada eng ko‘p muvaffaqiyatga erishganlar Tayxo, Tienofudzi, Kitanoumi hisoblanadi. Lekin boshqa ko‘rsatkich bo‘yicha Akebono hozircha rekordni qayd qilib turibdi. Uning ko‘rsatkichi 233 ni tashkil etadi. Bu raqam nimani anglatadi?

Javob: Sumo jangchisining kilogrammlardagi vaznini. Akebono eng og‘ir sumochi hisoblanadi.

369-savol: Mashhur rus sarkardasi Aleksandr Suvorov: "U ko‘milgandan so‘nggina urush tugaydi degan". U kim?

Javob: So‘ntti askar.

370-savol: Uni chinakkam himoya kuroli desa bo‘ladi, chunki u nafaqat mikroblardan ba‘zan odamlardan ham himoya qiladi. Uning qalbakisini bir sudralib yuruvchining nomi bilan bog‘lashadi. O‘sha sudralib yuru vchini ayting.

Javob: Timsoh.

Izoh: Gap bu yerda ko‘z yoshi to‘g‘risida ketmokda.

371-savol: Ushbu ikki raqsning kuylari bir-biriga juda o‘xshab ketadi. Hattoki bu ikkala raqs musiqasini chalishda bir hil musiqa asbobidan foydalanilgan. Bu bilan ularning o‘xshash tomonlari tugamaydi. Ularnig birinchisi ya‘ni bizga yaqinrog‘ining nomiga uchta harf qo‘shilsa va ikkinchi unlini boshqasi bilan almashtirilsa ikkinchisining nomi kelib chiqadi. Menga har ikkala raqs nomini yozib bering.

Javob: Lazgi va lezginka.

372-savol: "Kirill va Mefodiyning katta entsiklopediyasi" ning 2006 yilda chiqarilgan sonida Xitoy haqidagi maqolada bu davlatning 13 davlat bilan chegaradosh ekanligi haqida yozilgan va shu davlatlarning ro‘yhati keltirilgan. Lekin bu ro‘yxatdagi bir davlat bilan Xitoy hech qachon chegaradosh bo‘lmagan. Siz menga shu davlatning poytahtini ayting.

Javob: Toshkent.

373-savol: Ikkinchi jahon urushida u kim bo‘lganligini aniqlash kiyin. O‘tkir Hoshimovning fikricha, u erkak emas, ayol kishi bo‘lgan ekan. Siz menga uning o‘limiga sababchi bo‘lgan mevani ayting.

Javob: Qulupnay.

Izoh: O‘tkir Hoshimovning "Urushning so‘nggi qurboni" asarining bosh qahramoni qulupnay teraman deb tok zarbidan halok bo‘ladi.

374-savol: Ming yillardan beri bu it zoti Xitoy ibodatxonalarida buddistlarning diniy an‘analari bilan bog‘liq bo‘lganlar. Bu itni faqatgina imperator oilasi vakillarigina saklashlari mumkin bo‘lgan. Agar uni kimdir o‘g‘irlasa yoki haqorat qilsa o‘lim jazosiga mahkum qilingan. Qaysi it zoti Xitoyda bunchalik qadrga ega bo‘lganligini ayting.

Javob: Pekines.

374-savol: Bunday holat "Zakovat" o‘yinida 2006 yilning dekbrida sodir bo‘lgan. 1998 yilda esa aynan shunday holat yuz berganida u xaqida hattoki qo‘shiqlar kuylandi. Bunday natijani qayd qilgan davlatlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda ayting.

Javob: Argentina va Yamayka. Xisobning 5-0 bo‘lishi.

375-savol: 1778 yili Angliyada bir lord tomonidan uch yoshli toza zotli otlarning 1,5 mil masofaga bo‘lgan poygasi bo‘lib o‘tgan. Siz menga bu poygada birinchi o‘rinni olgan otni emas, oxirgi o‘rinni olganini ham emas, o‘sha ingliz lordining familiyasini ayting.

Javob: Derbi.

376-savol: Bu kasallikka qarshi faqatgina qoramollar emlanadi. Uning Rossiyadagi oxirgi epidemiyasi 60-yillarda sodir bo‘lgan. Aynan o‘sha yillarda uchta "qo‘noq" bu kasallikka karshi emlanadi. Aslida u vaktgina emas boshqa dori edi. Qanday dori?

Javob: Uxlatadigan dori.

Izoh: Bu oqsim kasalligi. "Kavkaz asirasi" filmida kuyov bolaning qo‘noqlari uxlatadigan dori bilan "emlanadi".

377-savol: Afsonaga ko‘ra, sehrgar kampir unga bir kuni kelib qirol bo‘lishini aytadi. Shundan keyin u armiya to‘plab, Eldjin yaqinida qirolni mahv etadi. Qirol esa shu jangda halok bo‘ladi. Mashhur dramturg esa qirol to‘shakda o‘ldirilgan deb yozgan. Usha mashhur dramaturgning fikricha, qirolning qotili kim?

Javob: Makbet.

378-savol: Fabritsio ismli cherkov xodimi o‘zining shiddatli xarakteri tufayli qamaladi va qamoqxona komendantining qizi Kleliya Kontini sevib qoladi va o‘sha qiz unga qamoqxonadan qochishga yordam beradi. Lekin ularning ittifoqi uzoqqa cho‘zilmaydi va Fabritsio yoshgina paytida ibodatxonada vafot etadi. Siz menga o‘sha ibodatxona qaysi shaharda joylashganini ayting.

Javob: Parma.

Izoh: Bu yerda gap Stendalning "Parma ibodatxonasi" asarining bosh qahramoni Fabritsio haqida bormokda.

381-savol: Bu it zotining qadimiy ajdodlari harbiy yurishlarda, it urishtirish janglarida juda ko‘p ishtirok etishgan, buqalarni ovlashda insonga yordam berishgan, darvoqe, ularning o‘zi ham buqaga juda o‘xshab ketadi. Bu qaysi it zoti?

Javob: Buldoglar. Inglizcha bull - buqa, dog - it.

382-savol: Ularning birinchisi 1483 yilda yozib tugatilgan, ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchisi 1484 yilda, beshinchisi esa 1485 yili yozib tugatilgan. Siz menga ularni beshtalovi birgalikda qanday

atalganini ayting.

Javob: "Hamsa". Gap bu yerda Alisher Navoiyning "Hamsa"sidagi 5 doston haqida ketmokda.

383-savol: 1948 yili Yaponiyaning "Konishi" firmasi o'zining ilk fotokamerasini ishlab chiqargach, o'z nomini o'zgartiradi. Ushbu firma qanday atala boshlandi?

Javob: "Konika". KONIshi + Camera.

384-savol: Bu joy nomining ma'nosi "qum bilan qoplangan joy" degan ma'noni anglatadi. Ko'pchiligingiz u yerda bo'lgan bo'lsangiz kerak. Agar bo'lmagan bo'lsangiz uni suratlarda, televizorda va kitoblarda ko'rgansiz. Endi siz menga uning tarkibiga kiruvchi uch inshootning nomini yozib bering.

Javob: Ulug'bek, Sherdor, Tillakori madrasalari. Bu yerda gap Samarqanddagi Registon maydoni haqida ketmokda.

385-savol: Atoqli shoirimiz Erkin Vohidov insondagi bu hususiyat xaqida she'r yozib, barchani o'sha hususiyatga ega bo'lishga chaqiradilar va ushbu hislatning yaxshi tomonini ikkita oshxonada buyumini misolida tushuntiradilar. U qaysi buyumlar ekanini yozib bering.

Javob: Choynak va piyola.

386-savol: Qirg'izistonning Jalolobod viloyatidagi shahar, Buxoro viloyatidagi tuman, Tojikistondagi katta ko'llardan biri, shuningdek qo'y zoti. Ularning barchasi bir hil ataladi. Qanday ataladi?

Javob: Qorako'l.

387-savol: Bu inson 1918 yilda ilk marotaba sahnaga chiqqan. 1927 yildan 1958 yilgacha bir mashhur dramaturgning nomi bilan ataladigan teatrda faoliyat ko'rsatgan va Shekspirning bosh qahramonlarining rollarini ijro etgan. Keyinchalik uning nomi bilan ham boshqa teatr atala boshlagan. Siz u qaysi teatrda o'zining mashhur rollarini ijro etganligini va u insonning nomi bilan ataladigan teatr nomini yozib bering.

Javob: "Hamza" va "Abror Hidoyatov".

388-savol: Bu shaharga asos solgan inson bilan shu shahar meri adash hisoblanishadi. Bu qaysi shahar?

Javob: Moskva. Yuriy Dolgorukiy va Yuriy Lujkov.

389-savol: Bu so'z lotin tilidan olingan bo'lib, "chegaralayman" degan ma'noni anglatadi. Shuningdek bu so'z bilan sayyoralarning yoritilgan va yoritilmagan qismi o'rtasidagi chegara ham ataladi. Endi siz menga ushbu so'z bilan ataluvchi filmda bosh qahramonning kelasi zamonda aytgan iborasini ayting.

Javob: I'll be back.

390-savol: Richard Sheryurak, prezident Nikson, Pikasso. Ularning g'ovakshoxlilar oilasiga kiruvchi kavsh qaytaruvchi juft tuyokli hayvonning bolasining oltinga teng ishiga nima aloqasi bor?

Javob: Yuqoridagi rollarni ijro etgan aktyor Entoni Xopkins "Qo'zilarning sukunati" filmida J. Demmi rolini ijro etgan. Sukunat esa, maqolga ko'ra oltinga teng.

391-savol: Ko'pchiligimiz "yuragim to'lib yig'lab yubordim" degan iborani eshitganmiz. Haqiqatan ham yurakning to'lishi, ayniqsa liq to'lishi yaxshilikka olib kelmaydi. Nima uchun?

Javob: Chunki bu yurak infarkt bo'lgan bo'ladi.

392-savol: Uglevodorodlardan biri va osiyodagi davlatni birlashtiruvchi nomni yozib bering.

Javob: Butan.

393-savol: Bu kompaniyaga 1939 yili Stanford universitetining bitiruvchilari Bill va Devid ismli ikki kishi tomonidan asos solingan. Dastlab audioostsilyatorlar ishlab chiqarishdan o'z faoliyatini boshlagan sheriklar hozirgi kunga kelib aniq o'lchashlarni amalga oshiradigan vositalardan tortib tibbiy jihozlargacha ishlab chiqaradi. Lekin bu kompaniya tomonidan ishlab chikriladigan asosiy mahsulotlarni aytmadim, sizdan ham buni so'ramayman, siz menga Bill va Devidlarning familiyalari nima ekanligini ayting.

Javob: Xyulett va Pakkard.

394-savol: Bu jurnal ko'pgina mamlakatlarda mashhurlikka erishgan bo'lib, ko'pgina tillarda chop etilgan, alohida davrlarda uning tiraji 5 mln. dan ham ortib ketgan edi. Bu jurnalga asos solgan Xyu Xefner tomonidan o'z vaktida shu jurnal nomi bilan ataladigan klublar tashkil etilgan edi. Endi siz menga ushbu klublardagi hizmatchilar qaysi hayvon ko'rinishida mijozlarga hizmat ko'rsatishganini ayting.

Javob: Quyon (bunnies).

395-savol: Bu termini eshitganlar hozirgi kunda eng ommabop bo'lgan transport vositasini sevuvchilarga tegishli termin bo'lsa kerak degan xulosaga kelishlari mumkin. Aslida bu terminning transport vositasiga hech qanday alokasi yo'q. Bu terminning sinonimi sifatida kadimgi yunon mifologiyasining qahramonlaridan birining sharafiga qo'yilgan boshqa termini keltirishadi. Siz menga o'sha mifologik qahramonni emas, balki u kimni sevib qolganini ayting.

Javob: O'zini.

396-savol: Artur Shopengauer boylikni dengiz suviga o'hshatgan. Ularning o'hshash tomoni nimada ekan?

Javob: Undan qancha ko'p ichsang chanqoging ngunchalik ortadi.

397-savol: Bu buyuk rus aktyori teatr va kinodagi rollari uchun ko‘plab mukofotlarga sazovor bo‘lgan. Biz uning ismi-familiyaini kamida ikkita filmda eshitganmiz. Birinchi filmda uning o‘zi o‘z ismi-sharifini aytib o‘zini tanishtiradi, ikkinchi filmda esa uning ismi-sharifini bir rejissyor aytadi. Albatta ikkinchi holda o‘sha rejissyor adashgan edi, u bizning qahramonimiz emasdi. U holda kim edi?

Javob: Haqiqiy Ivan Grozniy.

398-savol: Biz hammaning ko‘z o‘ngida jazolar ijro etiladigan davrda yashamaymiz albatta, lekin bir yerda millionlar nigohi ostida jazo ijro etiladi. Bu jazo har doim ham adolatli bo‘lavermaydi. Bu jazo hammaga ham zarar keltiravermaydi, bu jazodan foyda ko‘ruvchilar ham bor. Endi siz menga shu jazoni ko‘pchilik hal qiluvchi hollarda nimaga o‘hshatishini ayting.

Javob: Lotereyaga.

399-savol: Bu shahar 1997 yildan boshlab Taraz deb atala boshlandi. Bu shaharning eski nomini ko‘pchilik mashhur bir filmda eshitgan. O‘shanda shu shahardan bo‘lgan bir jentlmen u yer issiq ekaninin, uning onasi o‘sha yerda ekanligini aytadi. Siz menga o‘sha jentlmenning otasining mashhur adashi nechta raqibga qarshi kurashganini ayting.

Javob: 40 ta.

Izoh: Bu shaharning ilgarigi nomi Jambul bo‘lgan. "Omadli jentlmenlar" filmining qahramonlaridan biri Vasiliy Aliboboevich aynan Jambullik bo‘lgan. Alibobo esa 40 ta qaroqchiga qarshi kurashgan.

400-savol: Mashhur qiziqchi va tabiat landshaftlaridan birining nomlarini o‘zaro qo‘shadigan bo‘lsak bir shaharning ilgarigi nomi kelib chiqadi. Siz menga bu shaharning hozirgi nomi bilan bir hil ataluvchi asar yozgan mashhur yozuvchini ayting.

Javob: Sa‘diy.

Izoh: Guliston shahrining ilgarigi nomi aynan Mirzacho‘l bo‘lgan.

401-savol: Bu ikkala o‘zaro raqobatchi kompaniyaning qishloq xo‘jaligiga hech qanday aloqasi yo‘q. Lekin ulardan ikkovi ham o‘z ramzlarida qishloq ho‘jaligining yirik sohalari bilan bog‘liq narsalarni o‘zlariga ramz qilib olishgan. Ulardan biri qishloq ho‘jaligi sohalaridan birining eng asosiy mahsulotlaridan birini o‘z ramziga tushirgan bo‘lsa, ikkinchisi qishloq ho‘jaligining yana bir sohasining asosiy mahsulotini yaratuvchilarini o‘z ramziga aylantirgan. Shu kompaniyalarning nomini ayting.

Javob: MTS va Bilayn.

Izoh: MTS ramzi tuxum, Bilayn ramzi esa asalari.

402-savol: 2000 yilning 27 avgustida Moskva shahrida sodir bo‘lgan voqea tufayli shahar aholisi bir oy bir narsadan mahrum bo‘lishgan. Bu bir oy Moskva aholisi uchun juda zerikarli o‘tganini

e'tiborga olgan holda ushbu voqea Moskvaning kaerida sodir bo'lganini ayting.

Javob: Ostankino teleminorasida.

Izoh: U yerda sodir bo'lgan yong'in tufayli shahar aholisi bir oycha teleuzatishsiz qolgan.

403-savol: Barchamizning kattami kichikmi uyimiz bor. Bu haqida kimdir biladi, kimdir bilmaydi. Lekin 1967 yil tadbirkor Kim U Jun tomonidan "kurilgan" "katta uy" ni butun jahon biladi. Uning bu "katta uyini" biz qaysi nom bilan bilamiz?

Javob: Deu (koreyscha "katta uy").

404-savol: Bu mashhur inson tongda soat 7 dan 12 daqiqa o'tganda tug'ilgan, kunduzi soat 11 dan 52 daqiqa o'tganda texnikumni, 13 dan 12 daqiqa o'tganda institutni tamomlaydi. 13.44 dan 14.32 gacha Moskvada tahsil oladi. 15 dan 12 daqiqa o'tganda qilgan ishi uchun yuksak mukofotga sazovor bo'ladi. U mashhur inson kimligini ayting.

Javob: Chingiz Aytmatov.

Izoh: Bu yerda uning biografiyasi 100 yilga nisbatan bir sutka sifatida olingan. "Asrga tatigulik kun" asarini eslang...

405-savol: Siz rasmda ko'rib turgan suratda avstriyalik tadbirkor, diplomat va avtopoygachi Emil Yellinekning qizi tasvirlangan. Bir daqiqadan keyin siz menga bu qizning ismi nimaligini ayting.

Javob: Mercedes.

Izoh: Aynan mana shu qiz sharafiga 1901 yil Maybax tomonidan yaratilgan avtomobil atalgan.

406- savol: Blitz.

Mavzu: Futbol.

1. 1857 yili qaysi shaharda jahondagi birinchi futbol klubi tashkil etilgan?
2. Olimpiada o'yinlarida ishtirok etadigan 16 jamoadan qaysi ikkitasi saralash o'yinlarisiz musobakalarga kirishadi?
3. "Oltin to'p" mukofoti Yevropaning eng kuchli futbolchisiga beriladi. Unga sazovor bo'lgan ikkita Yevropalik bo'lmagan futbolchilar kim va ularning vatani kaer?

Javoblar:

1. Sheffild.
2. Bundan avvalgi Olimpiada o'yinlarining chempioni va musobaqa tashkilotchisi bo'lgan davlat.
3. J. Veav - Liberiya va Ronaldo - Braziliya.

407- savol: Quyida berilgan suratlarda 100 nemis markasining yuz tomonida nemis pianistkasi Klara Shuman tasvirlangan, orka tomonida esa uning asosiy ish kuroli bo'lgan royal tasvirlangan. 200 nemis markasining yuz tomonida esa nemis mikrobiologi Robert Kox tasvirlangan, orka tomonida esa uning asosiy ish kuroli mikroskop tasvirlangan. Endi diqqatingizni uchunchi, 1000 marka bo'lgan banknotaga qarating. Bir daqiqadan keyin uning yuz tomonida tasvirlangan kishilar kimligini ayting.

Javob: Aka-uka Grimmlar.

408-savol: Diqqat qora quti! Mashhur "Ming bir kecha" asaridagi "Kanizak Tavaddud hikoyasi" da unga shunday ta'rif beriladi: "Qochoq bo'lmasa ham zanjirband qilingan, o'g'ri bo'lmas ham bog'langan, urushda bo'lmas ham nayza urilgan, jarohatlangan, ammo mushtlashish vaqtida emas, kechasi xotinidan ayriladi va kunduzi qo'yniga oladi". Qora qutida nima bor?

Javob: Tugma.

409-savol: Afsonaga ko'ra, Sohibqiron Amir Temur uni ko'rgach, shunday xitob qilgan ekan: "Mana endi, biz ikki nogiron – barcha insonlar ichida eng qudratlilarimiz". Siz menga uning kim ekanligini emas, bu xitob qaysi shaharda yangraganini ayting.

Javob: Ankara.

Izoh: 1402 yil 20 iyulda Anqarada bir ko'zli Yildirim Boyazidni ko'rganida aytilgan xitob.

410-savol: Hayotda turli tasodiflar ko'p albatta. Bu hech qaysimiz unutmagan inson o'z g'arazli maqsadini amalga oshirgan kuni undan ham mashhur bo'lgan inson dunyoga keladi. Bu ikki insonning millati bir ekanligini hisobga olib, ularning ismlarini to'g'ri ketma-ketlikda ayting.

Javob: Gerostrat va Aleksandr.

Izoh: Gerostrat Artemida ibodatxonasiga o't qo'ygan kuni Aleksandr Makedonskiy dunyoga kelgan.

411-savol: Mashhur "Yaguar" avtomobil kompaniyasi dastlab paydo bo'lganida "Swallow Sidekar" deb nomlangan edi. Lekin 1945 yilda uning nomini o'zgartirib, "Yaguar" deb atay boshlashdi. Nima uchun kompaniyaning nomini o'zgartirishga to'g'ri kelib qoldi?

Javob: Chunki ushbu nomni "SS" ko'rinishida qisqartirishar edi va 1945 yili ushbu abbreviatura jinoiy natsistlik tashkiloti bilan assotsiatsiyalanadigan bo'lib qoldi.

412-savol: Mashhur adib o'zining mashhur asaridagi ikki qahramonga shunday ta'rif beradi: "Ikkovi ham bo'yi past, juda qiziquvchan, bir-biriga juda o'xshash, ikkovining ham unchalik katta bo'lmagan qorni bor, ikkovi ham juda tez gapiradi va gapirayotganlarida hatti-harakatlari va qo'llari bilan tushuntirishadi". Bu bilan ularning o'xshash tomonlari tugamaydi ularning hatto ismlari va otalarining ismi ham bir hil, faqat familiyalari bir-biridan bitta harfga farq qiladi. Ular kim ekanligini ayting.

Javob: Dobchinskiy va Bobchinskiy.

413-savol: Sitata: "Uni Saratovda har bir it biladi, - dedi prikazchik, yozishga ihtiyor eting janobi oliylari, Saratov shahriga muhtaram Yakov Vasilich...Vasilich..." ga. Siz o'sha tish doktorining familiyasini unutmagan bo'lsangiz, bir daqiqadan keyin uni menga yozib bering.

Javob: Ovsov.

414-savol: Qadimgi Sharq mifologiyasida tanasi sherniki, qanotlari burgutniki, boshi esa ham shernikidek ham burgutnikidek bo‘lgan shoxli fantastik hayvon bo‘lgan. Ularni grifonlar deb atashgan. Bu grifonlarning tasviri bizgacha yetib kelgan. Britaniya muzeyida eramizdan avvalgi 4-5 asrga tegishli bo‘lgan, Tojikiston xududidan topilgan, grifonlar boshining tasviri tushirilgan oltin bilakuzuk saqlanadi. Bu bilakuzuk juda qimmatbaho bo‘lishiga qaramasdan, uning tasvirini barchamiz ko‘rganmiz, lekin hammamiz ham uning aynan o‘sha bilakuzuk tasviri ekanligini bilmaymiz. Qora kuti da esa mana shu bilakuzuk tasviri tushirilgan va deyarli barchamizda bo‘lgan narsa turibdi. U nima ekanligini aniq qilib ayting.

Javob: 100 so‘mlik kupyura.

415- savol: Ularning ikkalasi ham Atlantika okeanida joylashgan. Ular uchun umumiy bo‘lgan nom birinchisining asosiy nomi emas, lekin uni ko‘pincha shu nom bilan atashadi, ikkinchisi uchun bu nom xaqiqiy nom hisoblanadi. Birinchisi o‘zining yetakchisi bilan mashhur bo‘lsa, ikkinchisi o‘zining arxitektura inshooti bilan mashhur. Siz menga ular uchun umumiy bo‘lgan nomni ayting.

Javob: Ozodlik oroli.

Izoh: Kuba davlatini "Ozodlik oroli" deb atashadi, haqiqiy Ozodlik oroli esa AQSh ga tegishli bo‘lib, unda mashhur inshoot - Ozodlik haykali qad ko‘targan.

416-savol: Diqqat savolda almashtirilgan so‘zlar bor: "Men shu narsaga erishamanki, baliq oviga boksga bo‘lgan hurmatdan kam bo‘lmagan hurmat bilan yondoshishadi, Muhammad Ali o‘zining navbatdagi chiqishi uchun qancha so‘ramasin, men undan ko‘proq so‘rayman". Diqqat savol, agar siz bu so‘zlarning muallifi kim ekanligini topgan bo‘lsangiz, "baliq ovi" so‘zi bilan qaysi so‘z almashtirilganini aytasiz.

Javob: Shaxmat.

Izoh: Bu so‘zlarning muallifi esa mashhur shaxmatchi Fisher hisoblanadi.

417-savol: Diqqat qora quti! Shoir Erkin Vohidovning she’rini eshiting:

She’riyatning timsoli – qalam,
U hakda-ku she’rlar behisob,
Ey shoirlar, bitganda kitob
Eslab qo‘ying buni ham.
Busiz bo‘lmas she’ringiz ravon,
Busiz qilmas satrlar xanda,
Siz qalamga she’r aytganda,
Bunga bag‘ishlang doston.

Sezgan bo‘lsangiz, shoir bu deganda nazarda tutgan narsa qora quti ichida turibdi, qora qutida nima bor?

Javob: O‘chirg‘ich.

418-savol: O'zbek maqolida birinchi ishni qilgan – katta suv havzasiga, ikkinchi ishni qilgan esa, tozalangan qamish cho'pidan to'qilgan to'shamaga o'hshatiladi. Endi siz menga ikkinchi va birinchi ishni bir vaqtning o'zida bajaradigan kishilar shug'ullanadigan sport turini ayting.

Javob: Shaxmat.

Izoh: Shaxmat bilan shug'ullanuvchi shaxmatchilar o'tirib yurishadi. Maqol esa, "Yurgan daryo, o'tirgan bo'ya".

419-savol: U insonning asl ismi Oyxo'ja ibn Toshxo'ja bo'lgan. Arslonbob eshonning avarasi bo'lgan. O'ta qora tanli bo'lgani uchun u insonni o'sha biz bilgan nom bilan atashgan. Agar siz kim haqida gap ketayotganligini anglagan bo'lsangiz, uning nomi bilan ataladigan tuman respublikamizning qaysi viloyatida joylashganini ayting.

Javob: Toshkent.

Izoh: Bu yerda gap Zangi ota haqida ketmokda.

420-savol. Blitz.

Mavzu: Islom.

1. Bu qit'a aholisining 20 %idan ortiqrog'ini musulmonlar tashkil etadi. Bu qaysi qit'a?
2. Islomda zaruriylik nuqtai nazaridan farzdan keyin, sunnat talablaridan oldin turadigan amal turi qanday nomlanadi?
3. Islom tarixidagi birinchi muazzin, ya'ni azon aytuvchi inson kim bo'lgan?

Javoblar:

1. Osiyo.
2. Vojib.
3. Bilol.

2008 yil.

421-savol: Arablar uni "Abu riyoh" – "shamol otasi" deb atashadi. Uni eslaganimizda bizning ko'z oldimizga keladigan mavjudotni esa arablar abulyaqzon deyishadi. Bir daqiqadan so'ng abu riyoh va abulyaqzon nimaligini ayting.

Javob: Flyuger, xo'roz.

422-savol: Bu ingliz harbiy gidrografi va kartografi, kontr-admirali 1829-1855 yillarda Buyuk Britaniya gidrografik xizmatiga rahbarlik qilgan. 1806 yilda u taklif etgan 12 ballik shkala hali ham amalda qo'llanilmoqda. Siz menga bu shkala bo'yicha 0 ball va 12 ball qanday atalishini ayting.

Javob: Shtil va dovul(uragan).

Izoh: Gap bu yerda Frensis Bofort va u taklif etgan Bofort shkalasi haqida ketmoqda.

423-savol: U shoti, tegarchik va o‘q kabi asosiy qismlardan tuzilgan. Uning ot, tuya, ho‘kiz, eshakka mo‘ljallangan turlari bor. Uning odamga mo‘ljallangan turi qanday atalishini ayting.

Javob: Riksha.

Izoh: Gap bu yerda arava haqida ketmoqda.

424-savol: Miloddan avvalgi 5 asrda Gerodot skiflar turmushini tasvirlaganda ularning eng yaxshi ko‘radigan ichimligi oldindan tayyorlab qo‘yiladigan bir shifobahsh ichimlik ekanligini qayd etgan. Skiflar hayotini ko‘z oldingizga keltiringda, bu qanday ichimlik ekanligini ayting.

Javob: Qimiz.

425-savol: Olloyor boyning yagona qizi Guloyim o‘z dugonalari va o‘z oshig‘i Arslon bilan Eron shohi Nodirshoh va qalmoq xoni Surtaysha hujumidan yurtini himoya qilishga otlanadi. Siz menga Guloyimning nechta dugonasi u bilan birga vatan himoyasiga otlanganini ayting.

Javob: 40 ta.

Izoh: Gap bu yerda “Qirqqiz” eposi haqida ketmoqda.

426-savol: O‘zbekiston hududida ular dastlab kishilarning qish faslida istiqomat qiladigan joyi sifatida vujudga kelgan. Hozirda esa u yerlarda kishilar to‘rttala faslda ham hayot kechirmoqdalar. Qaerda?

Javob: Qishloqda.

427-savol: Diqqat savolda almashtirilgan so‘z bor. Sakfar, Omarg va Oamiris dushman qo‘shinini yengish uchun harbiy kengash o‘tkazayotganda, ularning huzuriga marshal kelib o‘z rejasini bayon qilgan. Bu reja keyinchalik samara beradi va dushman qo‘shini qurol-yarog‘siz mag‘lubiyatga uchratiladi. Siz ushbu savolda marshal so‘zi qaysi so‘z bilan almashtirilganini topingda menga o‘sha marshalni ismini ayting.

Javob: Shiroq. Marshal so‘zi otboqar so‘zining o‘rniga ishlatilgan.

Izoh: Marshal so‘zi frantsuz tilida otboqar degan ma’noni anglatadi.

428-savol: Brassica rapa ni chiqarish uchun avval 3 ta Homo sapiens, so‘ngra Canis familliaris, Felis catus ovora bo‘lishdi, nihoyat Murinae vakili kelib ishni oxiriga yetkazadi. Endi ularning barchasi qanday sho‘rva ichishlari mumkin?

Javob: Sholg‘om sho‘rva.

Izoh: Bu yerda sholg‘om, 3 ta inson ya’ni, chol, kampir, nevara hamda it, mushuk va sichqonning lotincha ilmiy atalishi keltirilgan.

429-savol: Bahri Akramovanning Habiba, Vova, Shuhrat, Hamidulla, Rafiq, Rahmatulla, Xolida, Samug‘, Yo‘ldosh, Ergash, Halima, Qoravoy, Ne‘mat, Muazzam, Hakima va Ulug‘bek degan farzandlari bo‘lgan. Siz menga Bahri Akramovanning erining ismi-sharifini ayting.

Javob: Shoahmad Shomahmudov.

430-savol: “To‘maris o‘yinlari” festivalida xalq milliy harakatli o‘yinlari “Otib qochar”, “Otishma”, “Tortishmachoq”, arqonda sakrash, to‘p uloqtirish, qo‘l kuchini sinash kabi musobaqalar bo‘ladi. Ushbu festival ilk marotaba Jizzah shahrida nechanchi yili bo‘lib o‘tganligini ayting.

Javob: 1999 yil – Ayollar yilida. Musobaqada faqat ayollar ishtirok etishadi.

431-savol: Ushbu “Ustalarning ustasi” bo‘lgan “Professional” aktyorning Kann kinofestivali bilan munosabatlari yaxshilanmadi. Biroq bu “Riodan kelgan odam” Fahriy legion ordeniga sazovor bo‘lishga muvaffaq bo‘ldi. Ushbu savolda gap kim haqida ketmoqda?

Javob: Jan Pol Belmondo.

Izoh: Ushbu savolda Jan Pol Belmondo suratga tushgan eng mashhur filmlarning nomi keltirilgan.

432-savol: 1499 yilda ispanlarning A. De Oxeda ekspeditsiyasi bu mamlakat qirg‘oqlarini tekshirganda indeyslarning suvda qoziqlar ustida qurilgan turar joylarini ko‘rib, bu diyorni bir nom bilan atashdi. Ular bu diyorni qanday atashgan?

Javob: Venesuela (“Kichik Venetsiya”).

433-savol: Men birinchi marta u bilan 16 yoshimda tanishdim. U bilan oz emas, ko‘p emas 10 yil birga bo‘ldik. Keyin u meni vaqtinchalik tark etdi. Biroq hijron uzoqqa cho‘zilmadi, oradan 3 hafta o‘tib biz yana diydor ko‘rishdik. U endi boshqacha, o‘zgacha edi. Biz yana 20 yil u bilan birga bo‘ldik. Buni qarangi, yana ayriliq. Bu ayriliq ham uch haftaga cho‘zildi va biz yana diydor ko‘rishdik, endi ajralmas bo‘lib, umrbod birga qoladigan bo‘lib uchrashdik. Mening bu beqaror va sodiq do‘stimni ayting.

Javob: Pasport.

434-savol: Uning hususiyatlaridan texnikada keng foydalaniladi. Kemalar, samolyotlar, kosmik apparatlarga uning hossasiga asoslangan har hil asboblari, giroskop, kompas va stabilizatorlar o‘rnatiladi. Lekin 30 yildan ortiq davr mobaynida undan boshqa maqsadda ham foydalanilmoqda. Qanday maqsadda?

Javob: Tomoshabinlardan kelgan maktublarni tanlashda.

Izoh: Bu yerda gap pirildoqlar (volchok) haqida ketmoqda.

435-savol: Butunittifoq o‘simlikshunoslik institutining O‘rta Osiyo tajriba stantsiyasida 1944 yili Juravel va Negrul Bolqon uzumi va Gamburg muskati navlarini chatishtirib, yangi uzum navini olishadi va unga yaxshi niyat bilan nom berishadi? Qanday nom berishgan?

Javob: “Pobeda” (“g‘alaba”).

436-savol: Protivogazlarning ikki hil turi bor. Filtrlovchi va izolyatsiyalovchi. Ular tashqi ko‘rinish jihatdan bir-biriga o‘xshab ketadi. Lekin ularning bir printsiplial farqi bor. Bu farq nimada deb o‘ylaysiz?

Javob: Filtrlovchi protivogazdan foydalanilganda tashqaridagi havodan foydalaniladi, izolyatsiyalovchi protivogazda esa foydalanilmaydi.

437-savol: 1865 yilda tog‘ muhandisi Frederik Idestem o‘z mamlakatining janubi-g‘arbida yog‘ochga ishlov beruvchi korxonani tashkil etadi. Keyinchalik borib-borib bu korxonani yiriklashib butun dunyo insonlarini o‘zaro bog‘ladi. Siz menga Idestem qaysi mamlakat fuqarosi bo‘lganligini va uning tashkil etgan korxonasi qanday atalganini ayting.

Javob: Finlyandiya, Nokia.

438-savol: Bu ikki adashlardan birinchisi 1946 yilning 5 sentyabrida Zanzibarda, ikkinchisi huddi shu yili 16 aprelda Toshkentda tug‘ilgan. Ularning har ikkalasi ham 25 yoshga to‘lganlarida o‘z guruhlarini tuzishadi. Bu guruhlarini birinchisi butun dunyoga mashhur bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchisi ham jahonning ko‘p davlatlarini kezib chiqdi. Siz menga bu adashlarning ismini emas, ular tashkil etgan guruhlar nomini ayting.

Javob: “Kuin” va “Yalla”. (Farruh Balsara va Farruh Zokirov).

439-savol: Sizlarning har biringiz shubhasiz unga egasiz, kimdadir ko‘proq, kimdadir kamroq. Bunga bizda unchalik e‘tibor berilmaydi. Lekin AQSh da uning yordamida armiyaga yoshlarni saralab olishadi. Albatta bo‘lajak vatan himoyachisi uchun uning qanchaligi katta ahamiyatga ega. Bilimdonlar uchun ham bu ahamiyatli ekanligini hisobga olib uni nimaligini ayting.

Javob: Intellektual ko‘ffitsient.

440-savol: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasining 4-jildida Sent-Lyusiya davlati poytahti haqidagi maqola bilan Pokistonning sharqiy qismidagi shahar haqidagi maqolalar orasida butun dunyoga mashhur yurist haqidagi maqola berilgan. Bu yuristning to‘liq ismi-sharifiga e‘tibor bersangiz uni bir millatga mansub deb o‘ylashingiz mumkin. Lekin u boshqa millatga mansub. Men sizdan u qaysi millatga mansubligini so‘ramayman, siz menga u qaysi davlatda tug‘ilganini ayting.

Javob: Kuba.

Izoh: Gap bu yerda Fidel Kastro Rus haqida ketmoqda. (Kastri va Kasur shaharlari haqidagi maqola orasida).

441-savol: Blits savol.

Mavzu: Servis belgilari.

1-savol: Mexmonxonani shifoxonaga aylantiruvchi belgi qaysi?

2-savol: Oshxonani anglatuvchi belgida aynan qaysi ikki predmet tasvirlangan?

3-savol: Dam olish joyini anglatuvchi belgida qaysi daraxt tasvirlangan?

Javoblar:

1. Qizil xoch.
2. Vilka va pichoq.
3. Archa.

442-savol: U haqida ikki o‘zbek adibi bir-biriga o‘xshash fikrlarni bayon qilishgan: birinchisi uning kuchini artilleriya qurolidan yuqori qo‘ygan bo‘lsa, ikkinchisi yadro qurolidan ustun qo‘ygan, xatto uning qo‘llanilishi borasida tavsiya ham bergan. Siz menga uning nimaligini va o‘sha ikki adib aytgan qurol turlarini ayting.

Javob: Adabiyot, zambarak va atom (bombasi). Adiblar esa mos ravishda Parda Tursun va Abdulla Qahhor.

443-savol: Agar mushuksimonlar oilasi vakillaridan birining nomidan bitta harfni olsak, bo‘risimonlar oilasi vakillaridan birining erkagining nomi kelib chiqadi. Birinchisi yovvoyi hayvon bo‘lsa, ikkinchisi uy hayvoni hisoblanadi. Bir daqiqadan keyin ikkala hayvonni ham ayting.

Javob: Sher va it. (Arslon va arlon).

444-savol: Bu xalq o‘zini “oq quyoshning farzandlari” deb hisoblashadi. Xattoki ularning bayrog‘ida ham oq quyosh tasvirlangan. Bu xalqning nomini eshitganimizda bizning hayolimizga keladigan qimmatbaho tosh esa oq rangli emas. Siz menga bu tosh qaysi rangda bo‘lishini ayting.

Javob: Qizil (yoqut).

Izoh: Yoqutlar o‘zlarini aynan shunday atashadi. Yoqutiston bayrog‘ida esa oq quyosh tasvirlangan.

[\[Bosh sahifa\]](#) [\[Biz bilan aloqa\]](#) [\[Savol yo‘llash\]](#) [\[Bizning manzil\]](#)

Ushbu savollarda mualliflik huquqi bor. ©

Muallif yoki klub ruxsatisiz ushbu savollardan moddiy manfaatlarda foydalanish mumkin emas.

Savollardagi barcha ma’lumotlar va faktlarga muallif javobgar.

Copyright © ZAKOVAT, 2008.

All Rights Reserved.